

Marifat

1931-yildan chiqra boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 14-iyul, chorshanba № 28 (9353)

Xalq ziyolilari gazetasi



9 YIL NEMIS TILI
O'RGANGAN O'QUVCHILARGA
ENDI INGLIZ TILI O'QITILYAPTI

2-bet

Otning erkagi nima bo'ladi?"

8-bet

Milliy to'lov
jozibasi

2-bet

Oftob urgan fikrlar

4-bet

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?



Davrlarni solishtirishning foydasi yo'q. Har kim o'zinikini ma'qul deydi. Bola paytimizda asalni bochkasi bilan, oqqandni qopi bilan olib kelib qo'yishardi. Shokoladlarni yemay qurtlatib qo'yg'animizni eslayman. Oilamiz badavlat emasdi. Ammo yashash darajasini hozirgiga solishtirganda bugunning qulayliklarini tan olmaslik mumkinmas. Bolaligimizda shifer yopilgan tomlarni kamdan kam ko'rardik. Uylar ham oddiygina ohaklangan bo'lardi. Qishlog'imizda juda kam oilalarda mashina bor edi. Hozir-chi? Nima desangiz deng-u, baribir, har davrning o'z yutuqlari va muammolari bor.

Xosiyatxon JUMABOYEVA



Oxirgi paytlar "musaffo osmon" so'zi masxaromuz ma'noda ishlatiladigan bo'ldi. "Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q" deb bejiz aytishmaydi-da.

O'tgan kunlar Termiz osmonida ikkita harbiy samolyot uchganida musaffo osmonimiz qadrini chuqur angladik.

Tinchlik bo'lmasa, qaysi kasb faoliyat yuritarkan?

Tinchlik bo'lmasa, o'qituvchi kimni o'qitar ekan?

Tinchlik bo'lmasa, nima tatiydi?

Tinchlik bo'lmasa, kim to'y qiladi?

Tinchlik bo'lmasa, hamma euzu maqsadlar bekor.

Gulchehra ASHUROVA



Oddiy oilalar dam olishga yoki davolanishga borsa, mehmonxonalarda qolishni cho'ntagi ko'tarmaydi. Bizda mehmonxonalar faqat turistlar va kattakonlarga xizmat qiladi.

Yurtimizning jannatmonand joylari ko'p, u yerlarda shinam mehmonxonalar ham talay. Ichki turizmni rivojlantirish uchun ana shu mehmon uylari sifatini emas, narxini tushirish kerak yoki o'qituvchi, shifokorlar va ularning oilalariga chegimlar berish kerak.

Ziyoda MAMAJONOVA

Milliy tovush jozibasi

Ma'lumki, tilning to'plangan bilim, tajribalarini qayd qilish, milliy-ma'naviy qadriyatlar, tarixiy meros, urf-odat, an'analarni saqlash hamda avlodlardan avlodga o'tkazish vazifasi bevosita yozuv orqali amalga oshadi. Anglashiladiki, til, yozuv va alifbo masalasi milliy ahamiyatga ega. Bugun yurtimizda lotin yozuviga bosqichma-bosqich o'tish, alifbo islohotlari jadal ketayotgan bir paytda mazkur jihat yanada dolzarblilik kasb etadi.

Ko'pchilikka ayonki, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-fevraldagi qarori bilan lotin alifbosiga to'liq bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha yo'l xaritasi tasdiqlandi. Unga ko'ra, hozirda kirill alifbosida yuritiladigan barcha joy, ko'cha nomlari, atamalar, peshlavhalar, ommaviy targ'ibot vositalari, reklama va e'lonlar, ish qog'ozlari va turli blanklar 2022-yil dekabriga qadar lotin grafikasiga o'tkazilishi lozim. Yo'l xaritasida lotin yozuviga o'zbek alifbosining yangi tahriri asosida "O'zbek tilining imlo qoidalari"ni tasdiqlash bo'yicha hukumat qarori loyihasini ishlab chiqish alohida masala sifatida o'rin olgan. Shu nuqtayi nazardan, hozirgi kunda 28 ta harf va 1 ta harfiy birikmadan iborat o'zbek alifbosini joriy etish ko'zda tutilgan. Bunda quyidagicha o'zgartirish taklif qilinmoqda: G, g (G', g'), O, o (O', o'), S, s (Sh, sh), Ç, ç (Ch, ch). Modomiki, ixchamlik yo'lidan borilar ekan, so'z o'rtasi va oxirida qo'llanadigan ng (n) sonori uchun ham bitta belgini qabul qilish ayni muddao.

Tarixga nazar solsak, turkiy xalqlarning qadimiy xatlaridan sanalgan O'rxun-Yenisey yozuvida sirg'aluvchi ng tovushi maxsus harf vositasida ifodalangan. Jumladan, Kultegin bitiktoshida quyidagi so'zlarni uchratamiz: tängri – tangri, tört bulun – to'rt yoq, dunyo – ning to'rt tomoni, kün bōlti – joriya bo'ldi, qanqim – otam.

Sir emaski, har bir alifbo qaysi tilda yaratilgan bo'lsa, o'sha tilning xususiyatlaridan kelib chiqadi. Qadimda yozuv, imlo va alifbo islohi bilan bog'liq bir necha

jarayonlarni kuzatish mumkin. Chunonchi, arab alifbosi turkiy tillar tovush xususiyatini to'liq ifodalay olmagan bo's tarixda uni bir necha marotaba o'zgartirishga qaratilgan harakatlar bo'lgan. Chunki turkiy tilda arab tiliga nisbatan unli tovushlar ko'proq. Bizdagi e, o' kabi tovushlar arab tilida yo'q. Shuning uchun et so'zi it, qo'sh esa qush tarzida yoziladi. Holbuki, ularning ma'nolari o'rtasida katta tafovut mavjud. Beruniy o'zining "Saydanna" asarida shunday yozadi: "Arab yozuvida buyuk bir ofat bor, u ham bo'lsa bir necha juft harflarning ko'rinishida bir-biriga o'xshashliklari va ularni farq qilish uchun nuqta e'rob (ya'ni so'zni to'g'ri talaffuz etish uchun harflarning osti va ustiga qo'yiladigan) belgilarning zarurligidir. Agar bular tushirib qoldirilsa, ma'no mutlaqo anglashilmaydi".

Mahmud Koshg'ariy turkiy fonemalar bilan arab yozuvidagi grafemalar o'rtasida katta nomutanosilik mavjudligi, shuning uchun bu yozuv turkiy tillar fonetik (fonologik) tizimini to'g'ri ifodalay olmasligini ko'rsatib beradi. Xususan, arab yozuvida shunday harflar borki, bu harflar faqat arab tiliga xos bo'lgan fonemalarni ifodalaydi: "hech bir turk qabilasi tilida ٢ harfi (ni ifodalagan tovush) yo'qdir. It-boq harflaridan bo'lmish خ ص ظ ٣ harflari (ni ifodalagan tovush) ham turk tilida yo'q. Shuningdek, bo'g'iz tovushlari ifodasi bo'lmish ع ح ٤ harflari ham turklarda yo'qdir. ٥ ٦ ٧ ٨ ٩ ١٠ ١١ ١٢ ١٣ ١٤ ١٥ ١٦ ١٧ ١٨ ١٩ ٢٠ ٢١ ٢٢ ٢٣ ٢٤ ٢٥ ٢٦ ٢٧ ٢٨ ٢٩ ٣٠ ٣١ ٣٢ ٣٣ ٣٤ ٣٥ ٣٦ ٣٧ ٣٨ ٣٩ ٤٠ ٤١ ٤٢ ٤٣ ٤٤ ٤٥ ٤٦ ٤٧ ٤٨ ٤٩ ٥٠ ٥١ ٥٢ ٥٣ ٥٤ ٥٥ ٥٦ ٥٧ ٥٨ ٥٩ ٦٠ ٦١ ٦٢ ٦٣ ٦٤ ٦٥ ٦٦ ٦٧ ٦٨ ٦٩ ٧٠ ٧١ ٧٢ ٧٣ ٧٤ ٧٥ ٧٦ ٧٧ ٧٨ ٧٩ ٨٠ ٨١ ٨٢ ٨٣ ٨٤ ٨٥ ٨٦ ٨٧ ٨٨ ٨٩ ٩٠ ٩١ ٩٢ ٩٣ ٩٤ ٩٥ ٩٦ ٩٧ ٩٨ ٩٩ ١٠٠ ١٠١ ١٠٢ ١٠٣ ١٠٤ ١٠٥ ١٠٦ ١٠٧ ١٠٨ ١٠٩ ١١٠ ١١١ ١١٢ ١١٣ ١١٤ ١١٥ ١١٦ ١١٧ ١١٨ ١١٩ ١٢٠ ١٢١ ١٢٢ ١٢٣ ١٢٤ ١٢٥ ١٢٦ ١٢٧ ١٢٨ ١٢٩ ١٣٠ ١٣١ ١٣٢ ١٣٣ ١٣٤ ١٣٥ ١٣٦ ١٣٧ ١٣٨ ١٣٩ ١٤٠ ١٤١ ١٤٢ ١٤٣ ١٤٤ ١٤٥ ١٤٦ ١٤٧ ١٤٨ ١٤٩ ١٥٠ ١٥١ ١٥٢ ١٥٣ ١٥٤ ١٥٥ ١٥٦ ١٥٧ ١٥٨ ١٥٩ ١٦٠ ١٦١ ١٦٢ ١٦٣ ١٦٤ ١٦٥ ١٦٦ ١٦٧ ١٦٨ ١٦٩ ١٧٠ ١٧١ ١٧٢ ١٧٣ ١٧٤ ١٧٥ ١٧٦ ١٧٧ ١٧٨ ١٧٩ ١٨٠ ١٨١ ١٨٢ ١٨٣ ١٨٤ ١٨٥ ١٨٦ ١٨٧ ١٨٨ ١٨٩ ١٩٠ ١٩١ ١٩٢ ١٩٣ ١٩٤ ١٩٥ ١٩٦ ١٩٧ ١٩٨ ١٩٩ ٢٠٠ ٢٠١ ٢٠٢ ٢٠٣ ٢٠٤ ٢٠٥ ٢٠٦ ٢٠٧ ٢٠٨ ٢٠٩ ٢١٠ ٢١١ ٢١٢ ٢١٣ ٢١٤ ٢١٥ ٢١٦ ٢١٧ ٢١٨ ٢١٩ ٢٢٠ ٢٢١ ٢٢٢ ٢٢٣ ٢٢٤ ٢٢٥ ٢٢٦ ٢٢٧ ٢٢٨ ٢٢٩ ٢٣٠ ٢٣١ ٢٣٢ ٢٣٣ ٢٣٤ ٢٣٥ ٢٣٦ ٢٣٧ ٢٣٨ ٢٣٩ ٢٤٠ ٢٤١ ٢٤٢ ٢٤٣ ٢٤٤ ٢٤٥ ٢٤٦ ٢٤٧ ٢٤٨ ٢٤٩ ٢٥٠ ٢٥١ ٢٥٢ ٢٥٣ ٢٥٤ ٢٥٥ ٢٥٦ ٢٥٧ ٢٥٨ ٢٥٩ ٢٦٠ ٢٦١ ٢٦٢ ٢٦٣ ٢٦٤ ٢٦٥ ٢٦٦ ٢٦٧ ٢٦٨ ٢٦٩ ٢٧٠ ٢٧١ ٢٧٢ ٢٧٣ ٢٧٤ ٢٧٥ ٢٧٦ ٢٧٧ ٢٧٨ ٢٧٩ ٢٨٠ ٢٨١ ٢٨٢ ٢٨٣ ٢٨٤ ٢٨٥ ٢٨٦ ٢٨٧ ٢٨٨ ٢٨٩ ٢٩٠ ٢٩١ ٢٩٢ ٢٩٣ ٢٩٤ ٢٩٥ ٢٩٦ ٢٩٧ ٢٩٨ ٢٩٩ ٣٠٠ ٣٠١ ٣٠٢ ٣٠٣ ٣٠٤ ٣٠٥ ٣٠٦ ٣٠٧ ٣٠٨ ٣٠٩ ٣١٠ ٣١١ ٣١٢ ٣١٣ ٣١٤ ٣١٥ ٣١٦ ٣١٧ ٣١٨ ٣١٩ ٣٢٠ ٣٢١ ٣٢٢ ٣٢٣ ٣٢٤ ٣٢٥ ٣٢٦ ٣٢٧ ٣٢٨ ٣٢٩ ٣٣٠ ٣٣١ ٣٣٢ ٣٣٣ ٣٣٤ ٣٣٥ ٣٣٦ ٣٣٧ ٣٣٨ ٣٣٩ ٣٤٠ ٣٤١ ٣٤٢ ٣٤٣ ٣٤٤ ٣٤٥ ٣٤٦ ٣٤٧ ٣٤٨ ٣٤٩ ٣٥٠ ٣٥١ ٣٥٢ ٣٥٣ ٣٥٤ ٣٥٥ ٣٥٦ ٣٥٧ ٣٥٨ ٣٥٩ ٣٦٠ ٣٦١ ٣٦٢ ٣٦٣ ٣٦٤ ٣٦٥ ٣٦٦ ٣٦٧ ٣٦٨ ٣٦٩ ٣٧٠ ٣٧١ ٣٧٢ ٣٧٣ ٣٧٤ ٣٧٥ ٣٧٦ ٣٧٧ ٣٧٨ ٣٧٩ ٣٨٠ ٣٨١ ٣٨٢ ٣٨٣ ٣٨٤ ٣٨٥ ٣٨٦ ٣٨٧ ٣٨٨ ٣٨٩ ٣٩٠ ٣٩١ ٣٩٢ ٣٩٣ ٣٩٤ ٣٩٥ ٣٩٦ ٣٩٧ ٣٩٨ ٣٩٩ ٤٠٠ ٤٠١ ٤٠٢ ٤٠٣ ٤٠٤ ٤٠٥ ٤٠٦ ٤٠٧ ٤٠٨ ٤٠٩ ٤١٠ ٤١١ ٤١٢ ٤١٣ ٤١٤ ٤١٥ ٤١٦ ٤١٧ ٤١٨ ٤١٩ ٤٢٠ ٤٢١ ٤٢٢ ٤٢٣ ٤٢٤ ٤٢٥ ٤٢٦ ٤٢٧ ٤٢٨ ٤٢٩ ٤٣٠ ٤٣١ ٤٣٢ ٤٣٣ ٤٣٤ ٤٣٥ ٤٣٦ ٤٣٧ ٤٣٨ ٤٣٩ ٤٤٠ ٤٤١ ٤٤٢ ٤٤٣ ٤٤٤ ٤٤٥ ٤٤٦ ٤٤٧ ٤٤٨ ٤٤٩ ٤٥٠ ٤٥١ ٤٥٢ ٤٥٣ ٤٥٤ ٤٥٥ ٤٥٦ ٤٥٧ ٤٥٨ ٤٥٩ ٤٦٠ ٤٦١ ٤٦٢ ٤٦٣ ٤٦٤ ٤٦٥ ٤٦٦ ٤٦٧ ٤٦٨ ٤٦٩ ٤٧٠ ٤٧١ ٤٧٢ ٤٧٣ ٤٧٤ ٤٧٥ ٤٧٦ ٤٧٧ ٤٧٨ ٤٧٩ ٤٨٠ ٤٨١ ٤٨٢ ٤٨٣ ٤٨٤ ٤٨٥ ٤٨٦ ٤٨٧ ٤٨٨ ٤٨٩ ٤٩٠ ٤٩١ ٤٩٢ ٤٩٣ ٤٩٤ ٤٩٥ ٤٩٦ ٤٩٧ ٤٩٨ ٤٩٩ ٥٠٠ ٥٠١ ٥٠٢ ٥٠٣ ٥٠٤ ٥٠٥ ٥٠٦ ٥٠٧ ٥٠٨ ٥٠٩ ٥١٠ ٥١١ ٥١٢ ٥١٣ ٥١٤ ٥١٥ ٥١٦ ٥١٧ ٥١٨ ٥١٩ ٥٢٠ ٥٢١ ٥٢٢ ٥٢٣ ٥٢٤ ٥٢٥ ٥٢٦ ٥٢٧ ٥٢٨ ٥٢٩ ٥٣٠ ٥٣١ ٥٣٢ ٥٣٣ ٥٣٤ ٥٣٥ ٥٣٦ ٥٣٧ ٥٣٨ ٥٣٩ ٥٤٠ ٥٤١ ٥٤٢ ٥٤٣ ٥٤٤ ٥٤٥ ٥٤٦ ٥٤٧ ٥٤٨ ٥٤٩ ٥٥٠ ٥٥١ ٥٥٢ ٥٥٣ ٥٥٤ ٥٥٥ ٥٥٦ ٥٥٧ ٥٥٨ ٥٥٩ ٥٦٠ ٥٦١ ٥٦٢ ٥٦٣ ٥٦٤ ٥٦٥ ٥٦٦ ٥٦٧ ٥٦٨ ٥٦٩ ٥٧٠ ٥٧١ ٥٧٢ ٥٧٣ ٥٧٤ ٥٧٥ ٥٧٦ ٥٧٧ ٥٧٨ ٥٧٩ ٥٨٠ ٥٨١ ٥٨٢ ٥٨٣ ٥٨٤ ٥٨٥ ٥٨٦ ٥٨٧ ٥٨٨ ٥٨٩ ٥٩٠ ٥٩١ ٥٩٢ ٥٩٣ ٥٩٤ ٥٩٥ ٥٩٦ ٥٩٧ ٥٩٨ ٥٩٩ ٦٠٠ ٦٠١ ٦٠٢ ٦٠٣ ٦٠٤ ٦٠٥ ٦٠٦ ٦٠٧ ٦٠٨ ٦٠٩ ٦١٠ ٦١١ ٦١٢ ٦١٣ ٦١٤ ٦١٥ ٦١٦ ٦١٧ ٦١٨ ٦١٩ ٦٢٠ ٦٢١ ٦٢٢ ٦٢٣ ٦٢٤ ٦٢٥ ٦٢٦ ٦٢٧ ٦٢٨ ٦٢٩ ٦٣٠ ٦٣١ ٦٣٢ ٦٣٣ ٦٣٤ ٦٣٥ ٦٣٦ ٦٣٧ ٦٣٨ ٦٣٩ ٦٤٠ ٦٤١ ٦٤٢ ٦٤٣ ٦٤٤ ٦٤٥ ٦٤٦ ٦٤٧ ٦٤٨ ٦٤٩ ٦٥٠ ٦٥١ ٦٥٢ ٦٥٣ ٦٥٤ ٦٥٥ ٦٥٦ ٦٥٧ ٦٥٨ ٦٥٩ ٦٦٠ ٦٦١ ٦٦٢ ٦٦٣ ٦٦٤ ٦٦٥ ٦٦٦ ٦٦٧ ٦٦٨ ٦٦٩ ٦٧٠ ٦٧١ ٦٧٢ ٦٧٣ ٦٧٤ ٦٧٥ ٦٧٦ ٦٧٧ ٦٧٨ ٦٧٩ ٦٨٠ ٦٨١ ٦٨٢ ٦٨٣ ٦٨٤ ٦٨٥ ٦٨٦ ٦٨٧ ٦٨٨ ٦٨٩ ٦٩٠ ٦٩١ ٦٩٢ ٦٩٣ ٦٩٤ ٦٩٥ ٦٩٦ ٦٩٧ ٦٩٨ ٦٩٩ ٧٠٠ ٧٠١ ٧٠٢ ٧٠٣ ٧٠٤ ٧٠٥ ٧٠٦ ٧٠٧ ٧٠٨ ٧٠٩ ٧١٠ ٧١١ ٧١٢ ٧١٣ ٧١٤ ٧١٥ ٧١٦ ٧١٧ ٧١٨ ٧١٩ ٧٢٠ ٧٢١ ٧٢٢ ٧٢٣ ٧٢٤ ٧٢٥ ٧٢٦ ٧٢٧ ٧٢٨ ٧٢٩ ٧٣٠ ٧٣١ ٧٣٢ ٧٣٣ ٧٣٤ ٧٣٥ ٧٣٦ ٧٣٧ ٧٣٨ ٧٣٩ ٧٤٠ ٧٤١ ٧٤٢ ٧٤٣ ٧٤٤ ٧٤٥ ٧٤٦ ٧٤٧ ٧٤٨ ٧٤٩ ٧٥٠ ٧٥١ ٧٥٢ ٧٥٣ ٧٥٤ ٧٥٥ ٧٥٦ ٧٥٧ ٧٥٨ ٧٥٩ ٧٦٠ ٧٦١ ٧٦٢ ٧٦٣ ٧٦٤ ٧٦٥ ٧٦٦ ٧٦٧ ٧٦٨ ٧٦٩ ٧٧٠ ٧٧١ ٧٧٢ ٧٧٣ ٧٧٤ ٧٧٥ ٧٧٦ ٧٧٧ ٧٧٨ ٧٧٩ ٧٨٠ ٧٨١ ٧٨٢ ٧٨٣ ٧٨٤ ٧٨٥ ٧٨٦ ٧٨٧ ٧٨٨ ٧٨٩ ٧٩٠ ٧٩١ ٧٩٢ ٧٩٣ ٧٩٤ ٧٩٥ ٧٩٦ ٧٩٧ ٧٩٨ ٧٩٩ ٨٠٠ ٨٠١ ٨٠٢ ٨٠٣ ٨٠٤ ٨٠٥ ٨٠٦ ٨٠٧ ٨٠٨ ٨٠٩ ٨١٠ ٨١١ ٨١٢ ٨١٣ ٨١٤ ٨١٥ ٨١٦ ٨١٧ ٨١٨ ٨١٩ ٨٢٠ ٨٢١ ٨٢٢ ٨٢٣ ٨٢٤ ٨٢٥ ٨٢٦ ٨٢٧ ٨٢٨ ٨٢٩ ٨٣٠ ٨٣١ ٨٣٢ ٨٣٣ ٨٣٤ ٨٣٥ ٨٣٦ ٨٣٧ ٨٣٨ ٨٣٩ ٨٤٠ ٨٤١ ٨٤٢ ٨٤٣ ٨٤٤ ٨٤٥ ٨٤٦ ٨٤٧ ٨٤٨ ٨٤٩ ٨٥٠ ٨٥١ ٨٥٢ ٨٥٣ ٨٥٤ ٨٥٥ ٨٥٦ ٨٥٧ ٨٥٨ ٨٥٩ ٨٦٠ ٨٦١ ٨٦٢ ٨٦٣ ٨٦٤ ٨٦٥ ٨٦٦ ٨٦٧ ٨٦٨ ٨٦٩ ٨٧٠ ٨٧١ ٨٧٢ ٨٧٣ ٨٧٤ ٨٧٥ ٨٧٦ ٨٧٧ ٨٧٨ ٨٧٩ ٨٨٠ ٨٨١ ٨٨٢ ٨٨٣ ٨٨٤ ٨٨٥ ٨٨٦ ٨٨٧ ٨٨٨ ٨٨٩ ٨٩٠ ٨٩١ ٨٩٢ ٨٩٣ ٨٩٤ ٨٩٥ ٨٩٦ ٨٩٧ ٨٩٨ ٨٩٩ ٩٠٠ ٩٠١ ٩٠٢ ٩٠٣ ٩٠٤ ٩٠٥ ٩٠٦ ٩٠٧ ٩٠٨ ٩٠٩ ٩١٠ ٩١١ ٩١٢ ٩١٣ ٩١٤ ٩١٥ ٩١٦ ٩١٧ ٩١٨ ٩١٩ ٩٢٠ ٩٢١ ٩٢٢ ٩٢٣ ٩٢٤ ٩٢٥ ٩٢٦ ٩٢٧ ٩٢٨ ٩٢٩ ٩٣٠ ٩٣١ ٩٣٢ ٩٣٣ ٩٣٤ ٩٣٥ ٩٣٦ ٩٣٧ ٩٣٨ ٩٣٩ ٩٤٠ ٩٤١ ٩٤٢ ٩٤٣ ٩٤٤ ٩٤٥ ٩٤٦ ٩٤٧ ٩٤٨ ٩٤٩ ٩٥٠ ٩٥١ ٩٥٢ ٩٥٣ ٩٥٤ ٩٥٥ ٩٥٦ ٩٥٧ ٩٥٨ ٩٥٩ ٩٦٠ ٩٦١ ٩٦٢ ٩٦٣ ٩٦٤ ٩٦٥ ٩٦٦ ٩٦٧ ٩٦٨ ٩٦٩ ٩٧٠ ٩٧١ ٩٧٢ ٩٧٣ ٩٧٤ ٩٧٥ ٩٧٦ ٩٧٧ ٩٧٨ ٩٧٩ ٩٨٠ ٩٨١ ٩٨٢ ٩٨٣ ٩٨٤ ٩٨٥ ٩٨٦ ٩٨٧ ٩٨٨ ٩٨٩ ٩٩٠ ٩٩١ ٩٩٢ ٩٩٣ ٩٩٤ ٩٩٥ ٩٩٦ ٩٩٧ ٩٩٨ ٩٩٩ ١٠٠٠ ١٠٠١ ١٠٠٢ ١٠٠٣ ١٠٠٤ ١٠٠٥ ١٠٠٦ ١٠٠٧ ١٠٠٨ ١٠٠٩ ١٠١٠ ١٠١١ ١٠١٢ ١٠١٣ ١٠١٤ ١٠١٥ ١٠١٦ ١٠١٧ ١٠١٨ ١٠١٩ ١٠٢٠ ١٠٢١ ١٠٢٢ ١٠٢٣ ١٠٢٤ ١٠٢٥ ١٠٢٦ ١٠٢٧ ١٠٢٨ ١٠٢٩ ١٠٣٠ ١٠٣١ ١٠٣٢ ١٠٣٣ ١٠٣٤ ١٠٣٥ ١٠٣٦ ١٠٣٧ ١٠٣٨ ١٠٣٩ ١٠٤٠ ١٠٤١ ١٠٤٢ ١٠٤٣ ١٠٤٤ ١٠٤٥ ١٠٤٦ ١٠٤٧ ١٠٤٨ ١٠٤٩ ١٠٥٠ ١٠٥١ ١٠٥٢ ١٠٥٣ ١٠٥٤ ١٠٥٥ ١٠٥٦ ١٠٥٧ ١٠٥٨ ١٠٥٩ ١٠٦٠ ١٠٦١ ١٠٦٢ ١٠٦٣ ١٠٦٤ ١٠٦٥ ١٠٦٦ ١٠٦٧ ١٠٦٨ ١٠٦٩ ١٠٧٠ ١٠٧١ ١٠٧٢ ١٠٧٣ ١٠٧٤ ١٠٧٥ ١٠٧٦ ١٠٧٧ ١٠٧٨ ١٠٧٩ ١٠٨٠ ١٠٨١ ١٠٨٢ ١٠٨٣ ١٠٨٤ ١٠٨٥ ١٠٨٦ ١٠٨٧ ١٠٨٨ ١٠٨٩ ١٠٩٠ ١٠٩١ ١٠٩٢ ١٠٩٣ ١٠٩٤ ١٠٩٥ ١٠٩٦ ١٠٩٧ ١٠٩٨ ١٠٩٩ ١١٠٠ ١١٠١ ١١٠٢ ١١٠٣ ١١٠٤ ١١٠٥ ١١٠٦ ١١٠٧ ١١٠٨ ١١٠٩ ١١١٠ ١١١١ ١١١٢ ١١١٣ ١١١٤ ١١١٥ ١١١٦ ١١١٧ ١١١٨ ١١١٩ ١١٢٠ ١١٢١ ١١٢٢ ١١٢٣ ١١٢٤ ١١٢٥ ١١٢٦ ١١٢٧ ١١٢٨ ١١٢٩ ١١٣٠ ١١٣١ ١١٣٢ ١١٣٣ ١١٣٤ ١١٣٥ ١١٣٦ ١١٣٧ ١١٣٨ ١١٣٩ ١١٤٠ ١١٤١ ١١٤٢ ١١٤٣ ١١٤٤ ١١٤٥ ١١٤٦ ١١٤٧ ١١٤٨ ١١٤٩ ١١٥٠ ١١٥١ ١١٥٢ ١١٥٣ ١١٥٤ ١١٥٥ ١١٥٦ ١١٥٧ ١١٥٨ ١١٥٩ ١١٦٠ ١١٦١ ١١٦٢ ١١٦٣ ١١٦٤ ١١٦٥ ١١٦٦ ١١٦٧ ١١٦٨ ١١٦٩ ١١٧٠ ١١٧١ ١١٧٢ ١١٧٣ ١١٧٤ ١١٧٥ ١١٧٦ ١١٧٧ ١١٧٨ ١١٧٩ ١١٨٠ ١١٨١ ١١٨٢ ١١٨٣ ١١٨٤ ١١٨٥ ١١٨٦ ١١٨٧ ١١٨٨ ١١٨٩ ١١٩٠ ١١٩١ ١١٩٢ ١١٩٣ ١١٩٤ ١١٩٥ ١١٩٦ ١١٩٧ ١١٩٨ ١١٩٩ ١٢٠٠ ١٢٠١ ١٢٠٢ ١٢٠٣ ١٢٠٤ ١٢٠٥ ١٢٠٦ ١٢٠٧ ١٢٠٨ ١٢٠٩ ١٢١٠ ١٢١١ ١٢١٢ ١٢١٣ ١٢١٤ ١٢١٥ ١٢١٦ ١٢١٧ ١٢١٨ ١٢١٩ ١٢٢٠ ١٢٢١ ١٢٢٢ ١٢٢٣ ١٢٢٤ ١٢٢٥ ١٢٢٦ ١٢٢٧ ١٢٢٨ ١٢٢٩ ١٢٣٠ ١٢٣١ ١٢٣٢ ١٢٣٣ ١٢٣٤ ١٢٣٥ ١٢٣٦ ١٢٣٧ ١٢٣٨ ١٢٣٩ ١٢٤٠ ١٢٤١ ١٢٤٢ ١٢٤٣ ١٢٤٤ ١٢٤٥ ١٢٤٦ ١٢٤٧ ١٢٤٨ ١٢٤٩ ١٢٥٠ ١٢٥١ ١٢٥٢ ١٢٥٣ ١٢٥٤ ١٢٥٥ ١٢٥٦ ١٢٥٧ ١٢٥٨ ١٢٥٩ ١٢٦٠ ١٢٦١ ١٢٦٢ ١٢٦٣ ١٢٦٤ ١٢٦٥ ١٢٦٦ ١٢٦٧ ١٢٦٨ ١٢٦٩ ١٢٧٠ ١٢٧١ ١٢٧٢ ١٢٧٣ ١٢٧٤ ١٢٧٥ ١٢٧٦ ١٢٧٧ ١٢٧٨ ١٢٧٩ ١٢٨٠ ١٢٨١ ١٢٨٢ ١٢٨٣ ١٢٨٤ ١٢٨٥ ١٢٨٦ ١٢٨٧ ١٢٨٨ ١٢٨٩ ١٢٩٠ ١٢٩١ ١٢٩٢ ١٢٩٣ ١٢٩٤ ١٢٩٥ ١٢٩٦ ١٢٩٧ ١٢٩٨ ١٢٩٩ ١٣٠٠ ١٣٠١ ١٣٠٢ ١٣٠٣ ١٣٠٤ ١٣٠٥ ١٣٠٦ ١٣٠٧ ١٣٠٨ ١٣٠٩ ١٣١٠ ١٣١١ ١٣١٢ ١٣١٣ ١٣١٤ ١٣١٥ ١٣١٦ ١٣١٧ ١٣١٨ ١٣١٩ ١٣٢٠ ١٣٢١ ١٣٢٢ ١٣٢٣ ١٣٢٤ ١٣٢٥ ١٣٢٦ ١٣٢٧ ١٣٢٨ ١٣٢٩ ١٣٣٠ ١٣٣١ ١٣٣٢ ١٣٣٣ ١٣٣٤ ١٣٣٥ ١٣٣٦ ١٣٣٧ ١٣٣٨ ١٣٣٩ ١٣٤٠ ١٣٤١ ١٣٤٢ ١٣٤٣ ١٣٤٤ ١٣٤٥ ١٣٤٦ ١٣٤٧ ١٣٤٨ ١٣٤٩ ١٣٥٠ ١٣٥١ ١٣٥٢ ١٣٥٣ ١٣٥٤ ١٣٥٥ ١٣٥٦ ١٣٥٧ ١٣٥٨ ١٣٥٩ ١٣٦٠ ١٣٦١ ١٣٦٢ ١٣٦٣ ١٣٦٤ ١٣٦٥ ١٣٦٦ ١٣٦٧ ١٣٦٨ ١٣٦٩ ١٣٧٠ ١٣٧١ ١٣٧٢ ١٣٧٣ ١٣٧٤ ١٣٧٥ ١٣٧٦ ١٣٧٧ ١٣٧٨ ١٣٧٩ ١٣٨٠ ١٣٨١ ١٣٨٢ ١٣٨٣ ١٣٨٤ ١٣٨٥ ١٣٨٦ ١٣٨٧ ١٣٨٨ ١٣٨٩ ١٣٩٠ ١٣٩١ ١٣٩٢ ١٣٩٣ ١٣٩٤ ١٣٩٥ ١٣٩٦ ١٣٩٧ ١٣٩٨ ١٣٩٩ ١٤٠٠ ١٤٠١ ١٤٠٢ ١٤٠٣ ١٤٠٤ ١٤٠٥ ١٤٠٦ ١٤٠٧ ١٤٠٨ ١٤٠٩ ١٤١٠ ١٤١١ ١٤١٢ ١٤١٣ ١٤١٤ ١٤١٥ ١٤١٦ ١٤١٧ ١٤١٨ ١٤١٩ ١٤٢٠ ١٤٢١ ١٤٢٢ ١٤٢٣ ١٤٢٤ ١٤٢٥ ١٤٢٦ ١٤٢٧ ١٤٢٨ ١٤٢٩

Ta'lim va istiqbol odimlari

Yangicha tashabbuslarni tatbiq etish har bir muallimdan izlanish va intilishni talab etadi

"Maktabni o'zgartirishdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu — maktab. Maktabni maktab qiladigan kuch esa o'qituvchilardir". Prezidentimizning ana shu hayotiy e'tirofi asosida mamlakatimizda ta'lim tizimiga yuksak e'tibor qaratilmoqda. Yosh avlodni har jihatdan yetuk, ilm-u ma'rifatli, intellektual salohiyatli, ertangi kunimiz suyanchi va tayanchi bo'la oladigan insonlar sifatida kamol toptirish yo'lida, tizimdagi yangilanishlar va islohotlar qamrovi tobora ortib bormoqda.



Buning ifodasini sohada zamonaviy pedagogik texnologiyalar, rivojlangan davlatlar tajribasi keng qo'llanayotgani, ta'lim-tarbiya jarayonlari innovatsion yondashuvlar asosida olib borilayotgani, axborot-kommunikatsiya vositalari, multimedialardan oqilona foydalaniylayotgani, xalqaro miqyosda ham ta'lim va tajriba almashuv jarayonlari izchil rivojlanib borayotgani kabi istiqbol odimlarida yaqqol ko'rish mumkin.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlar, keng ko'lamli chora-tadbirlar va tashabbuslar izchil davom etmoqda. Bu borada ma'naviy-axloqiy tarbiya yo'nalishidagi amaliy jarayonlar alohida ahamiyat kasb etadi. Binobarin, ma'rifatparvar allo-ma Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir" degan hikmatidan kelib chiqadigan bo'lsak, har bir bolaning oqil va komil inson bo'lib ulg'ayishida ta'limga uyg'un tarbiyaning ahamiyati katta. Bu ta'limni tarbiya bilan uyg'un va chambarchas bog'liq holda olib borishni anglatadi.

Shuning uchun ham ta'kidlab o'tganimizdek, bugungi islohotlar jarayonida xalq ta'limi tizimida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash yo'nalishidagi ishlar samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Shu maqsadda mamlakatimizdagi barcha umumta'lim maktablarida 2020-2021-o'quv yilidan 1-9-sinflar uchun "Vatan tuyg'usi", "Odobnoma", "Milliy g'oya", "Dunyo dinlari tarixi" kabi fanlarni birlashtirgan holda yangi "Tarbiya" fani joriy etilgan edi. 2021-2022-o'quv yilidan boshlab maz-

kur fan 10-11-sinflarga ham tatbiq etiladi. Ushbu fan darsliklari an'anaviy darsliklardan farqli ravishda zamonaviy yondashuvlar asosida, o'quvchilarning psixologik rivojlanishini inobatga olgan holda tayyorlangani bilan ahamiyatli. Zotan, shiddatkor davr odimlari, taraqqiyot mezonlari, yangicha-zamonaviy yondashuvlar o'quvchi e'tiborini jalb etish barobarida uning qalbiga, ong-u shuuriga ma'naviy-axloqiy fazilatlarini singdirishda muhim o'rin tutadi.

Shu o'rinda yana mutafakkirlardan iqtibos keltirar ekanmiz, ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiyning "Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblar ichida eng sharaflisi muallimdir" degan ta'kid ta'lim va tarbiyada, farzandlarimiz kamolida o'qituvchining o'rni, zahmatli mehnati qanchalar ahamiyatli ekanini yaqqol namoyon etadi.

Binobarin, bola bir nihol bo'lsa, muallim uni kamolot sari yetaklovchi kelajak bog'boni.

Aynan shu nuqtayi nazardan sohaning bugungi faoliyatida bola tarbiyasi va kamolida katta mas'uliyatni zimmasiga olgan sinf rahbarlari va maktab direktorlarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari faoliyatini yanada takomillashtirishga, ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bu borada ish samaradorligiga salbiy ta'sir etuvchi omillar, ya'ni ortiqcha hisobotlarni qisqartirish hamda qog'ozbozlikni bartaraf etish maqsadida sinf rahbarlari tomonidan yuritiladigan hujjatlar soni 10 tadan 2 taga, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari tomonidan shu kunga qadar yuritib kelinayotgan hujjatlar soni

19 tadan 4 taga qisqartirilganini alohida ta'kidlash joiz.

Istiqbol odimlarida yoshlar hayoti va kamoliga uyg'un soha faoliyati Prezidentimizning doimiy e'tiborida ekanligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunga juda ko'plab misollar keltirish mumkin. Birgina dalil, 2021-yil 19-yanvar kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining videoselektor majlisida davlatimiz rahbari ta'lim sohasiga, ma'naviyat va tarbiyaga, umuman, yoshlar hayoti bilan bog'liq barcha jihatlar alohida e'tibor qaratib, muhim va ustuvor vazifalarni belgilab bergan edi. Mazkur videoselektor majlisining 3-sonli bayonida keltirilgan vazifalar ijrosini ta'minlash doirasida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 5-sinf dan boshlab yagona sinf rahbari faoliyatini tashkil etish tizimi joriy etildi.

Bu shubhasiz, o'qituvchining o'quvchi bilan ishlashda, uning qalbiga yo'l topib, qiziqish va intilishlaridan boxabar holda kamolotga yetaklashida muhim o'rin tutadi.

2020-2021-o'quv yilining III choragidan (2021-yil 11-yanvardan) boshlab respublikamizdagi mavjud barcha 10008 ta umumta'lim maktabiga hududlardagi tanqiliy shoir va yozuvchilar, ijodkorlar, jurnalistlar, ma'naviyat va ma'rifat sohasi vakillari 0,5 shtat birligi asosida birlashtirilgan ma'rifat dargohlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar qamrovi o'rta ta'limda yangi bosqich bo'ldi.

Mazkur lavozim egalari, avvalo, badiiy adabiyot orqali o'quvchilarni qalbida milliy ruh, vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash, kitobxonlikni rivojlantirish, ijodiy qobiliyatga ega bo'lgan o'quvchilarni aniqlash, saralash, to'garaklar tashkil etish hamda reja asosida mahorat saboqlarini olib borgan holda ertangi kunimiz egalaridagi iqtidor va qobiliyatni yuzaga chiqarish borasida faoliyat yuritmoqdalar.

Inson kamoli va istiqbolini ma'naviyat va tafakkur belgilaydi. O'g'il-qizlarimizning fikri teran, tafakkuri keng, o'z nuqtayi nazarini va dunyoqarashiga ega insonlar bo'lib ulg'ayishi esa, Yangi O'zbekistonni barpo etishda nechog'li ahamiyatli ekanligi sir emas. Yurtboshimiz, "Yangi O'zbekiston — maktab ostonasidan boshlanadi", deya ta'kidlaganidek, bu boradagi odimlar maktabdan boshlanadi. Shuning uchun ham tizimda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini muntazam yuksaltirib borish maqsadida tizimda faoliyat olib borayotgan 15 mingdan ziyod ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha umumta'lim maktabi direktorining o'rinbosarlari faoliyatini hududiy, ya'ni tuman va shaharlardagi Ma'naviyat va ma'rifat kengashlari bilan hamkorlikda tashkil etish bo'yicha alohida tizim joriy etildi.

Ushbu tizimga asosan 2021-yilning 1-yanvaridan boshlab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha umumta'lim mak-

tablari direktorlarining o'rinbosarini lavozimga tayinlash tuman(shahar) ma'naviyat-ma'rifat markazi tavsiyasiga asosan amalga oshiriladi, hamda yil yakuni bo'yicha tuman(shahar) ma'naviyat-ma'rifat kengashiga hisobot berishi va hisobot natijasiga ko'ra uning faoliyatiga baho berib borilishi yo'lga qo'yildi.

Ta'kidlab o'tganimizdek, ta'lim va istiqbol yo'lidagi odimlarda ilg'or xoriijiy tajribalarni ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimiga joriy etishga doimiy e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda yurtimizda faoliyat olib borayotgan xalqaro tashkilotlar (UNODC, UNICEF, UNESCO) bilan hamkorlikda o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning huquqiy ongini rivojlantirish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilgan turli xil video va multiplikatsion materiallar tayyorlanib tizimga ommalashtirib borilmoqda.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan turli to'garaklar faoliyati izchil yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularga jami 3,9 mln. nafar o'quvchi qamrab olingan. Mazkur to'garak va mashg'ulotlar yozgi ta'til kunlarida samarali faoliyat olib bormoqda.

Farzandlarimiz ertangi umidimiz, ozod O'zbekistonning istiqboli bunyodkorlari. Shunday ekan, sohaga yangicha tashabbuslarni tatbiq etish soha vakillari-dan, tizimdagi har bir ustoz-muallim, murabbiydan hamisha, har daqiqaga izlanish va intilishni talab etadi. Ana shunday tashabbuslar samarasida davlat va nodavlat tashkilotlar, ota-onalarning o'zaro hamkorligida har haftaning dushanba kuni "Ertalabki saflanish", juma kuni "Ma'naviyat kuni" va 1-soatda "Sinf soati", har oyda muhim sanalarga bag'ishlangan "Ma'naviyat haftaligi" pedagog xodimlar uchun har oyning oxirgi juma kuni "Ma'naviyat soati" tadbirlari tashkil etish yo'lga qo'yilgan.

Ertangi kun egalari oldida Vatanga munosib bo'lish yo'lidagi burch va mas'uliyat haqida gap ketar ekan, bu boradagi barcha-barcha ezgu maqsadlarni jamlagan holda "Nimaiki qilsang tilak, bariga o'qish kerak" degan satrlarni keltirish o'rinli.

O'quvchi-yoshlar, farzandlarimiz, ertamiz egalari butun diqqat-e'tibori, o'y-maqsadini ana shu ezgu ahd ro'yobiga qaratishi yo'lida mamlakatimiz ma'rifat sohasi, xalq ta'limi tizimidagi sa'y-harakatlar, izlanishlar, yangilanishlar davom etadi.

Zero, biz maorifchilar Yangi O'zbekistonni bunyod etishga butun ilm-u salohiyatimiz, tafakkurimiz, tajriba va mahoratimiz bilan salmoqli va samarali hissa qo'shishga ahd qilganmiz.

Bu yo'lida esa tafakkur qanot, ma'naviyat yuksak cho'qqilar va parvozga undovchi asosiy mezon bo'ladi.

Vahobjon RAJABOV,
Xalq ta'limi vaziri o'rinbosari

Oftob urgan fikrlar



Tashqari 50 daraja issiq. Uyalmay-netmay kuppa-kunduzi suqingni keltirib, go'zal qizlarning sochini silaguvchi shilqim shabadalar qaysi go'rda soyalab yotibdi ekan. Bu anomal ob-havo deganlari e'jodning ham barakasini uchirdi. Yozgan maqolalarimni yelpib-yelpib eltsam ham muharrirning eshigiga borgunicha aynib qolyapti. Shuning uchun uch-to'rt sondan beri gazetada qoramiz ko'rinmaydur.

Dam olish kunlari tib ilmi donishmandlarining maslahatlariga amal qilib, suvdan chiqmay yotdim. Ko'chada, uyda, ishda, avtobusda, xullas, hamma joyda uchraydigan yig'i-sig'i, malomatlardan yaralangan sho'rlik quloqlarim, suvning hazillashib turtganiga ham bardosh berolmay bitib qoldi. Butunlay kar bo'lganim yo'q. Masalan, "Toshkentda yashash oson emas, bir-ikki so'm pul yuboray", "Imtihonlaringizni o'zimiz topshiramiz", "Kechga kel, jo'ra, ziyofat bor"... kabi gaplar kayfi oshgan chumolining chalkashib yiqilganida chiqadigan tovushdan ham pastroq jaranglasa-da, aniq-tiniq eshityapman. Bu hol uzoq davom etadigan bo'lsa, mendan ajralib qolasiz-ov, hurmatli mushtariylar.

Shoshmang-shoshmang, ziyoli odamning ham xayoli shu qadar buzuq bo'ladimi? Qoyilmasman-e sizga! Demoqchi bo'lganim, menga o'xshaganlar biror rahbarlik lavozimi uchun tayyor kadr. Minbarlarga chiqolib gapiraverasan-gapiraverasan, qizig'i, o'zing eshitmaysan, eshitmadingmi, demak, aytganlaringga amal qilmasang ham bo'laveradi. Odamlar kuyib-pishib dardini aytadi, bosh iringib turaverasan. Bu usul kattakonlar gapirganda ham qo'l keladi. Faqat orasida joyini topib qarsak chala olsang bas, ishing besh! Pora-mora olishga kelganda quloqqa ehtiyoj sezilmaydi. Imo-ishoralarning ming xilini o'ylab topishgan. Aksincha, bunda "quloq"lar pand berishi mumkin. Uning oldini olish uchun amerikanacha qog'ozni yaxshilab g'ijimlab, ehtiyotkorlik bilan teshigiga tiqib qo'ysang bo'ldi. Yashasin, garanglar!

Sizni bilmadim-u, anomal ob-havoda miyam ancha yaxshi ishlayapti. Bu do'xtirlar boshingdan issiq o'tsa, unday bo'ladi, bunday bo'ladi deb gapiraveradi-da. Ustozlarimizning ma'ruzalarida "Biz dunyoga dong'i ketgan millatmiz. Biz kabi mustaqil, tinch va farovon, fuqarolari baxtiyor el hech qayerda yo'q. Masalan, Afg'onistonni olaylik..." kabi purma'no gaplarini shu paytgacha hech anglamasdim. Kecha buni to'lig'icha tushunib yetdim. Agar Aflotun tirik bo'lganida, kelib menga shogird tushgan bo'lardi.

Ayni zamonda biz chindan ham dunyodagi eng oliy millat ekanmiz. Boshqalar bizga xizmat qilar ekan (o'zingizni bosing, otamning mo'ylovi bo'lgani bilan Gitlerga hech qanday aloqam yo'q). Egnimdagi ko'yilagimni turklar tikkan, oyog'imdagi shippakka "Made in China" deb yozib qo'yilgan, telefonimni koreyslar yasagan, nemislar ishlab chiqargan avtobusda uyimga

boraman, xullas, kuni bo'yi o'zgalarning mehnati mahsulidan foydalana-man. Yangi qurilayotgan zamonaviy uylarni ham biz uchun o'zga xalqlarning kompaniyalari qurib bermoqda, o'zbeklar tuzalib ketsin deb, koronavirusga qarshi vaktsinalarni boshqalar yaratmoqda, og'irroq kasal bo'lsak, hindlar davolaydi, ta'lim tizimimizni yevropaliklar-u yaponlar yaratishi kerak, shular qiyalib qolmasin, deb qarz ham beradi boshqalar... Bizning gardanimizga tushganni — amallab ko'rpa-to'shag-u yostiqlik topish. Hech bezovta bo'lmay xurrakni tortib uxlayversak bo'laveradi.

Aslini olganda shu-siz ham bunday issiq ob-havoda uyquning plani keragidan ortiq bajari-lyapti. Asosiy vaqtim uyqu bilan o'tgani bois, kundaligimga ko'rgan tushlarimni yozib chiqayapman. Bu menga ancha yoqib qoldi. Sababi, avvallari kundaligimda-gi yozuvlar ertalab uyg'ondim, choy ichdim, ishga bordim, falonchidan qarz oldim, tushlik qildim, uyga qaytdim, ovqatlandim, uxladimdan iborat edi. Oxirgi paytlarda bu bir xillikdan bezor bo'lib, kundaligimga yagona o'zgaradigan narsa — olgan qarzarlarimning summalarinigina kiritib qo'yayotgandim. Endi esa mutlaqo boshqacha. Keling "tushdalik"imdagi ayrim qaydlarni birligina o'qiymiz:

30-iyun:

Misr fir'avni Ramzes II bilan birga "Sum"dagi gummaxonada nonush-ta qildik (pulini menga to'latdi, pas!). O'zi koronavirus tarqalishiga qarshi kurashishga bag'ishlangan festivalda ishtirok etgani kelgan ekan. Qo'yarda-qo'y may meni ham yetaklab bordi. Borganim bir hisobda yaxshi bo'ldi. Sho'rlik qarsak chalishni bilmas ekan. O'rgatgunimcha rosa tinkam quridi. Keyin yaxshi qarsak chalgani uchun unga allaqanday mukofot topshirdilar. Festivaldan qaytishda xursandligidan foydalanib undan so'radim:

— Ramzes, jo'rajon, sen tomonda eskiroq bo'lsayam ijara-ga turishga ikki xonalik biror piramida bormi?

— Bor faqat oilalilarga beraman.

— Talaba bo'lsak ham xonani yomon tutmaymiz, bir yordam qil.

— Mayli, oyiga qancha to'laysizlar?

— O'zingdan qolar gap yo'q, stipendiya 400 ming, shuni bir oyga yetkazishimiz kerak. Oshnachiligimiz haqqi 100 dollar beramiz.

— Tentakmisan, bir qop sabzi ham olib bo'lmaydi-ku bu pulga?

— Xo'p mayli, 150 dollar-15 kishi yashaymiz, rozimisan?

— Sazang o'lmasin, faqat Qohira tomondan emas, Aleksandriyaga ketaveri-

biodarlarim — Chinggachkuk katta ilon, Ko'r burgut, Olashaqshaq hamda boshqa qabiladoshlarim bilan poyezd yo'lini to'sgani chiqdik. Yo o'lmoq yo'qolmoq — shudir masala. Jangning bu usuli oxirgi paytlarda qo'l kelayotgan edi. Afsuski, bu gal pistirmaga tushib qoldik. Omon qolganlarni yaqin atrofdagi melesaxonaga olib borib so'roq qilishdi. 15 sutkaga kesildik...

3-iyul:

Monika Belluchi...

4-iyul:

Hayvonot bog'iga bordim. Hayvonlar bola-chaqqalari bilan aylanib yuribdi. Qafaslarda galstuk taqqan qorindor odamlar. Katta rahbarlarni shu paytgacha faqat televizorda ko'rardim. Yaqindan tomosha qilish ancha maroqli ekan. Oxurlarga pul solib qo'yilgan. Chaynab yotishibdi. Men ham cho'ntagimdan ikkita yuz dollarlikni chiqardim-u, hushtak chalib chaqira boshladim. Birdan haligilar sim to'siqlarga tomon sakray boshladi. Ajoyib!

5-iyul:

Bugun gazetamizning tiraji bir million nusxadan oshdi. Shunday bo'lsa-da, muharririmizning negadir kayfiyati yo'q (kechagi sonda 9-sinf o'quvchisining Marsga uchadigan raketa yasagani to'g'risidagi "Marsga bormoq bir qadam" sarlavhali maqolamda imloviy xato o'tib ketganidan bo'lsa kerak). Ta'tilga chiqqan o'qituvchilarning Gavayi orollarida dam olishga ketgani haqida material tayyorladim (O'zi gazetada menga pishirib qo'yibdimi! O'qituvchi bo'lganimda 20 000 dollar oylik olardim, hatto, tekinga mashina berishyapti. Ko'chada uchratgan odamning qo'li ko'ksida "Domlajon, rahmat sizga, kecha bizning Abdusattorni o'qimagani uchun qulog'idan cho'zibsiz, odam bo'lsin degansiz-da. Ertaga hamma darslarni qilib boradi", "E ustoz, keling-keling to'rdan o'ting!", maza-maza o'qituvchilarga maza!).

Tushga yaqin uydagilar bilan gaplashdim. Qishloq o'sha-o'sha. Ukam komputer ishlab chiqaradigan kompaniyasi bilan ovara, amakimniki ham hamishagi ish — tog'dagi giyohlardan dori tayyorlab Hindistonga eksport qiladi. Hammasi qimir-qimir kunini ko'rib yotibdi. Uyni yangilayaptilar ekan. O'ris mardikorlar g'isht quyib yotibdi emish. Shularga ham qiyin. Bola-chaqasini tashlab Moskvaday joydan kelib bizni qishloqda ishlab yotibdi. Koreyslarni aytmaysizmi, arzimagan pulga dunyoning ishini qiladi. Ota-bobosi sahroyi bo'lganidanmi bilmayman, arab shayxlarining hech bir ishga uquvi yo'q. Topganiga zo'rg'a gorni to'yadi...

Hozircha shu, hurmatli mushtariylar. Eskilarda hamma yukni ko'targan tuya kapkimi ham ko'tarar, degan gap borku-ya, ammo qolganlarini-da o'qisak, zamon ko'tarmaydimi deb qo'rqaman. Endi uxlayki, bizni buyuk tushlar kutmoqda!

UYQUCHI



shdagi lo'liqshloqda bitta eski piramida bor, shuni beraman. Eshik derazasini qo'yasizlar. Keyin gaz, svet, suv, havo, uglerod, azot, kaliy, fosfat, sulfat... shularni ham o'zlaring to'laysizlar.

— Xo'p, avtobus yuradimi?

— Ha, faqat ungacha bor-yo'g'i 8 kilometrgina piyoda yurish kerak. Ha yana aytgancha, ichmaysan, chekmaysan, mehmon olib kelmaysan...

Hamma shartlariga rozi bo'ldim. Ayni zamonda 150 dollarga ijara uy topilganiga shukur.

1-iyul:

Odamzod hamisha uchishni orzu qilib kelgan. Va nihoyat, bu amalga oshdi. Bugun kuraklarimga qanot bitib, bir silkinishda havoga ko'tarildim. Uchdim! Bu jarayon menga cheksiz zavq bag'ishlashi bilan birga, ayrim astronomik qarashlarimni ham bir pulga chiqardi. Maktabda o'qituvchilarimiz fazoga chiqsang, har xil sun'iy yo'ldoshlar va astroidlarga duch kelasan deyishgandi. Afsuski, osmonda bizdagi uy, mashina va iste'mol mahsulotlarning narxlari bitilgan belgilardan boshqa hech vaqo yo'q ekan.

2-iyul:

Oq tanlilarga qarshi shiddatli kurash kechmoqda. Noinsoflar kecha qarargohimizga keladigan gaz va elektor tokini uzib qo'yishdi. Bunga javoban

"Fermerlar maktabi" — qishloq xo'jaligiga qiziqadigan, tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan yoshlar, ularning malakasini oshirish uchun tashkil qilingan O'zbekistondagi ilk loyiha.

Oliy ta'lim muassasalarida

"Fermerlar maktabi" — tadbirkorlik tomon tashlangan yana bir qadam



Bugun Toshkent davlat agrar universitetida yangiliklar talaygina.

Universitetimizda ko'plab yangi loyihalarni olib boryapmiz, — deydi Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i To'liqin Shamsiddinov. — Masalan, Agrobank hamkorligida "100 ta kitob" ijtimoiy loyihasi, "Fermerlar maktabi" huquqiy, iqtisodiy loyihasi hamda "Agro zamin" platformasi eng so'nggi yangiliklarimizdan. Xususan, Agrobank boshchiligidagi bo'lib o'tgan "100 ta kitob to'plami" ijtimoiy loyihasi respublikamizdagi olimlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarga har tomonlama qulay. Bundan tashqari, ushbu "100 ta kitob"da istalgan mahsulotningizn qanday ekilishi, foydasi, kelib chiqishi, turlari haqidagi ma'lumotlarni to'liqligicha olishingiz mumkin. O'zbekiston iqlimiga mos mahsulotlar ustida 120 nafardan ortiq soha mutaxassislari, olim va o'qituvchilar ishlashdi. Kitob hali ko'p joylarga yetib bormagani tufayli uning elektron varianti ham yaratildi (@agro100kitob_bot. Qiziquvchilar bimalol foydalanishi mumkin).

Universitetdagi yangiliklar bilan tani-shar ekanmiz "Fermerlar maktabi" faoliyati borasida ham ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ldik.

"Fermerlar maktabi" — qishloq xo'jaligiga qiziqadigan, tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan yoshlar, ularning malakasini oshirish uchun tashkil qilingan O'zbekistondagi ilk loyiha. Ushbu loyiha Agrobank va Toshkent davlat agrar universiteti tashabbusida joriy qilingan. Kurs tinglovchilari ushbu maktabda ikki oy mobaynida bepul ta'lim olishadi. Hozirda avgust-sentabr oylari uchun qabul davom etmoqda. Suhbatdan o'tgan 18–35 yosh oraliqidagi tadbirkor yoshlar (shu sohada faoliyat yuritish-yuritmasligi yoki ma'lumotining qandayligi ahamiyatsiz) saralab olinadi. Kursni muvaffaqiyatli tugatgan yosh tadbirkorlarimiz sertifikatga ega bo'lishdan tashqari, tayyorlagan biznes-reja orqali bankdan kredit olish imkoniga ham ega bo'ladi.

— "Fermerlar maktabi" beshta yo'nalishni o'z ichiga qamrab oladi: parrandachilik, chorvachilik, sabzavotchilik va polizchilik, issiqxona xo'jaligi, biznes, moliya va huquqiy savodxonlik, — deb ma'lumot beradi To'liqin Shamsiddinov. — Bu maktab nafaqat poytaxtda, balki Andijon, Samarqand, Termiz, Nukusda ham tashkil etildi.

"Fermerlar maktabi" agrar universitetidan uncha uzoqda emas ekan, shu bois, suhbatimizni o'sha yerga borib, davom ettirdik. Tinglovchilar uchun barcha sharoit mavjud, yotoqxona, ovqatlanish bepul tashkil qilingan. Asosiysi, qulay sharoitda yaxshi bilim olishyapti. Dars jarayoni qizg'in, bo'lajak tadbirkorlar katta maqsadlarni ko'zlaganlarini yonib turgan ko'zlaridan sezish qiyin emas.

"Fermerlar maktabi"da o'qiyotgan TDIU 1-kurs talabasi Umidjon Burxonov maktab faoliyati, berilgan shart-sharoitlardan mamnunligini bildirdi:

— Yoshligimdan qishloq xo'jaligiga qiziqib yurardim. Tomorqada qo'y, quyon boqardim. Lekin bu borada bilimim, tajribam oz bo'lgani sababli mutaxassis maslahatlari kerak edi. "Fermerlar maktabi" haqidagi e'lonni telegramdan ko'rib qolgach a'zo bo'ldim. 3–4 kun ichida suhbatdan ham o'tdim. Bu maktabga kelib, juda ko'p narsalarni o'rgandim. O'quv jarayoni qizg'in. Men issiqxona yo'nalishini tanladim, lekin qishloq xo'jaligida hamma soha chambarchas bog'liq, bir-birini bimalol to'ldiradi. Darslarimiz soat 9:00 dan 17:00 ga qadar bo'lib o'tadi. Ham nazariy, ham amaliy o'quv jarayonida 4 yillik bilimni bizga qisqa dastur asosida 2 oy ichida o'rgatishyapti. Mustaqil ta'lim vaqtida Zoom platformasi orqali mahorat darslari ham o'tiladi. Buning uchun albatta, tashkilotchilarga, ustozlarimizga o'z minnatdorchiligimni bildiraman. Ustozlarimizning hammasi professional, amaliyotni ko'rgan tajribali, saralab olingan ustozlar. Bundan tashqari, biznes, moliya, huquqiy savodxonlik darslari orqali biz haqiqiy tadbirkorlik sari qadam tashlamoqdamiz. 4 hafta nazariy bilimlarga ega bo'lib, hozirda 2 haftalik amaliyot jarayonidamiz. Yana 1 hafta davomida biznes-rejani tayyorlab, himoya qilishga tayyorlanamiz. Maqsadlarim shu yerga kelib yanada kengaydi. Bil-magan narsalarimni o'rgandim. Men ishini tomorqamni kengaytirishdan boshlamoqchiman. Faqat issiqxona bilan cheklanmasdan, qishloq xo'jaligining boshqa sohalarini ham o'rganib, uni rivojlantirishni maqsad qilganman.

Turfa o'simliklarga boy keng maydonda bu maktabdan tashqari, talabalarining ko'zi bilan ko'rib, qo'li bilan ushlab amaliyot qilishlari uchun hamma sharoit muhayyo. Talabalar o'qish bilan birga, universitetga yaqin joyda amaliyot o'taydilar. Kimdir piyoz ekan, kimdir ikki xil o'simlikni chatishtirib, yangi nav yaratgan. Chiroyda bir-biridan qolishmaydigan gullar bir tarafda, men hayotimda ko'r-magan ajoyibotlar bir tarafda. Qarasam, Janubiy Koreyadan keltirilgan mahsulotlar bor ekan.

— Ha, Janubiy Koreya bilan hamkorligimiz bor. Yoshlarimizning ilmiy bo'lishi uchun harakatdamiz. Bizda yana talabalar traktor haydashni o'rganadi. Shu yerda amaliyot qilishadi, — deydi To'liqin aka.



— 27 yildan beri Mirzo Ulug'bek tumanidagi 546-sonli bog'chada ishlayman, — deydi MTT uslubchisi Nargiza Yo'ldosheva. — 17 yoshimda ishga kelganman. Toshkent viloyati pedagogika bilim yurtida sirtidan tahsil olib, shu dargohga ishga kirganman. 2 yil tarbiyachi yordamchisi bo'lib ishladim. O'sha paytda rus bolalar ko'p bo'lgani uchun ularga o'zbek tilidan dars ham berganman. Keyin tarbiyachi bo'ldim. Uch yildan beri uslubchi lavozimida ishlayapman. Xodimlarimiz bilan juda inoqmiz, bir-birimiz bilan doimo tajriba almashib, yordam berib, mahoratimizni oshirishga harakat qilamiz.

"Mehr maskani"ning mehribon onajonlarimiz!

Uchqun nomli 546-MTT 1982-yildan beri faoliyat yuritib kelmoqda. Bog'chaning quvvati 390 nafar tarbiyalanuvchiga mo'ljallangan, ammo hozirda muassasada quvvatidan oshiq miqdorda bola qamrab olingan.


Hozirgi kunda 23 ta tarbiyachidan 10 tasi oliy ma'lumotli, 13 tasi o'rta maxsus ma'lumotga ega. Tarbiyachilarning salohiyati, tajribasi yuqori bo'lgani uchun ko'plab ota-onalar uylariga yaqin boshqa bog'chalar bo'lishiga qaramasdan aynan mazkur maskanni tanlasha-yotganiga guvoh bo'ldik.

Jajilar ta'lim maskanining ish vaqti soat 7:00 dan 17:30 gacha. Hozirgi karantin sharoitida har bir bola darvozadan kirishi bilanoq harorati o'lchanib, qo'llari antiseptik vositalari bilan tozalana-di. Ertalabdan o'qilgan badantariya mashg'ulotlari bolalarni tetiklashtirishga, toza havoga to'yinish va ishtahasi ochilishiga yordam beradi. Keyin esa to'yimli nonushtadan so'ng bolalar turli xil o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarga kirishadilar.

— Yozgi sog'lomlashtirish oyida chiniqtirish mashg'ulotlarini ko'p o'tkazamiz, — deydi Nargiza Yo'ldosheva. — Salqin o'yin maydonchasida bolaning xohishiga qarab har xil o'yinlar o'ynaladi. Kun issiq bo'lgani sababli suv ichish rejimiga qat'iy rioya qilinadi. Kunning ikkinchi yarmida soat 13:00 dan 15:30 ga qadar bolajonlarimiz dam olishadi. Bolalarni olib ketishga kelgan ota-onalar ichkariga kirgizilmaydi. Masofa saqlangan holda o'zimiz ularni olib chiqib baramiz. Ota-onalar va bolalar ham karantin talablarga ancha o'rgandi.

So'nggi yillarda yurtimizda maktab-gacha yoshdagi bolalarni ta'limga qamrab olishga katta e'tibor qaratilyapti. Zero, ko'plab pedagoglarning fikricha, bog'chaga borgan bola bilan bormagan bola orasida keyinchalik boshlang'ich ta'lim davrida ko'plab tafovutlar yuzaga keladi. Va bu sinfdagi notenglikni yuzaga chiqaradi. Shu bois bugun har bir MTTda 5–7 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktabga tayyorlov guruhlariga qamrab olishga, mazkur guruhlarda puxta o'quv mashg'ulotlari tashkil qilinishiga va bu orqali o'g'il-qizlarni maktabning a'lochisi o'quvchisi bo'lishiga tayyorgarlik ishlari qizg'in ravishda olib borilmoqda.

— Har bir guruhda tarbiyalanuvchilarning rivojlanish xaritalari bor. O'shanda bola bilan individual ishlab, daftarga qayd etib boriladi, — deydi Nargiza opa.



— Bundan tashqari, ingliz tilini o'rgatishga ham jiddiy e'tibor qaratilgan. Ingliz tili o'rgatuvchi o'qituvchilarning bolalarga qiziqarli o'yin metodlari orqali erkin mu-loqot qilishga, qo'shiq va she'rlar aytishga o'rgatishyapti. Yoshiga mos qiziqarli metodlarni o'z o'mida qo'llay olayotgan pedagoglarimiz bolalarimizga ingliz tilini qiyinchiliksiz o'rgatishmoqda.

Ta'lim shunday benazir narsaki, u olingan joyda yutuqlar albatta bo'y cho'zadi. Xatto, eng jajji bolajonlar orasida ham. Ingliz tilida biyron so'zlasha boshlagan bu o'g'il-qizlar ham eng dastlabki muvaffaqiyatlarga erisha boshlashdi. Xususan, tumanida tashkil qilingan "Ingliz tilini o'rganamiz" shiori ostidagi tanlovda muassasaning 2 nafar tarbiyalanuvchisi 1-o'rinni egalladi. Shuningdek, shaxmat turnirlari, "Istiqloq yulduzchalari", "Sog'lomjon — polvonjon" kabi tanlovlarda ham mazkur bog'cha bolalari hamisha yuqori natijalar ko'rsatib kelishadi.

— 2019-yilda bog'chamizning dera-za-romlari to'liq almashtirildi, — deydi Nargiza Yo'ldosheva suhbatga yakun yasarkan. — Tom hamda texnik jihozlari-miz ta'mirlandi. 25 yildan buyon ishlayotgan rahbarimiz ota-onalar homiyligida doim bog'cha sharoitini qoniqarililigi ush-lab turadi. Mirzo Ulug'bek tuman hokim-ligiga ham alohida rahmat. Mebellar, yangi karovatlar, stol-stullar, sochiqlar, ko'rpa-yostiq jildlari, idish-tovoqlar, antiseptik vositalari — nimaiki yetishma-sa, hammasini ta'minlab berishmoqda. Ikki yildan beri vazirlik tomonidan "Ilk qadam" dasturi bo'yicha juda ko'p tarqat-ma va ko'rgazmali materiallar berilmoqda.

Bolalar "oyi" desa juda-juda quvonaman. Nechta-nechalab tarbiyalagan bolalarim bilan hozirgacha muloqot qilib turamiz. 1-sinfga chiqqan bolalarim o'sha kunioyq kelib, minnatdorchilik bildirishadi. "Oyi", "aya", "opa"...o'z onalarini nima deb atashsa bizni ham shunday atashga odatlanishganidan mehnatlarimga mingdan-ming rozi bo'laman, har qanday qiyinchiliklar ortga chekinadi. Bekorga ishlamayotganimni his qilaman.

Dilafroz ABDURAJABOVA,
"Ma'rifat" muxbiri

Sinab ko'ring

“Qurilishga sayohat” o'yini

Matematika darslarida o'quvchi faolligini oshirish uchun “Qurilishga sayohat” o'yini qo'llaniladi. Bu o'yin ikkinchi sinfda 1000 soni ichidagi to'rt amal o'rganilgandan so'ng mustahkamlash bosqichida o'tkazilishi mumkin.

O'yin uchun qalin qog'ozdan yasalgan uy poydevoridan tortib, to'liq tayyor bo'lguniga qadar jarayonni aks ettiruvchi tasvir va besh bosqich uchun kartochkaga topshiriq tayyorlab qo'yiladi. O'qituvchi o'yin sharti bilan tanishtiradi. Uy yonidan yengil mashina orqali o'tish uchun o'yinchoq yoki rasm qo'yiladi.

O'quvchilar uch guruhga bo'linadi (uch qator parta uch guruh deb o'rgatiladi). Har bir guruhdan bir o'quvchi chiqib, rasm orqasiga yopishtirib qo'yilgan topshiriqni o'qiydi.

1. Misolni doskada ishlashadi:

1-guruh: $19 - x = 2$

2-guruh: $x - 2 = 8$

3-guruh: $34 - x = 10$

Besh nafar o'quvchi tenglamani yechib bo'lgandan keyin uyning poydevori “quriladi”. Bir o'quvchi chiqib mashinani 2-uyning tagiga surib qo'yadi. Yana uch o'quvchi (har bir guruhdan bir nafar) chi-

qib savolni olib o'qiydi va mashina uyning tagiga suriladi.

2. Misollarni yeching:

1-guruh: $328 + 687 = 435$

2-guruh: $219 + 164 + 421$

3-guruh: $213 + 784 - 428$

Mashina yana yurishda davom etadi. U 4-uyning yarmida to'xtatilib, topshiriqdagi savol o'qiladi.

4. Magnit doskaga misollar yozilgan ko'rgazmali qurol yopishtirilgan bo'ladi. Har bir qatordan bir nafar o'quvchi chiqib javobini aytishi lozim. Javobdan so'ng mashina suriladi.

1-guruh: $420 + 50 - 100 = 370$

2-guruh: $350 + 50 - 40 = 360$

3-guruh: $700 + 50 - 50 = 700$

Shu tariqa uyning poydevoridan boshlab to bitguniga qadar aqliy mehnat qilinadi. Uycha tayyor bo'ladi. Sinf sharoitiga qarab masala, misollar o'zgarib turishi mumkin.

Nargiza TO'XTAYEVA,
Toshkent shahridagi
198-maktab o'qituvchisi

Yozgi ta'til kunlari maktablarda tushlikka qadar oromgoh shaklida tashkil etilgan to'garak mashg'ulotlarida pedagogik-psixologik o'yin usullaridan foydalanib turish lozim. Masalan, “Kasb tanlash” mashqida diafilm, buklet, albom, kasb-hunarga doir adabiyot va qo'llanmalar ko'rgazmasi uchun zarur jihozlarni tayyorlab olamiz.

Kim bo'lmoqchisan, bolakay?

O'quvchilar ikki guruhga bo'linib, kasb-hunarni ulug'lovchi she'rlar, aforizm va o'zbek xalq maqollaridan namunalarni yoddan aytishadi.

1-bola: Duradgorman, duradgor
Har bir joyda men darkor.

Ko'rsam randa, taxtani
Turolmasman hech bekor.

2-bola:
Menda yo'q sira tinim,
“Taq-tuq”. Ishda ko'p unum.

Uyga zarur eshik-rom,
Ishlab olaman orom.

3-bola: Men tadbirkor bo'laman,
Ishim o'ylab qilaman.

Xorijiy davlatlar-la
Raqobat ham qilaman.

O'qituvchi “Usta” va “Tadbirkor” guruhlarini baholab, g'olib bo'lgan guruhni e'lon qiladi.

O'qituvchi barcha bolalarga quyidagi anketa savollarini tarqatadi:

1. Kim bo'lmoqchisan?

2. Ota-onangning kasb-kori senga yoqadimi?

3. Qaysi mashg'ulotlar kasb bilan bog'lab olib boriladi?

4. Qaysi pedagog va tarbiyachi senga yoqadi? Nima uchun?

5. Sevimli mashg'uloting (hobbing)?

6. Qaysi to'garaklarga qatnashasan?

7. Kasb-hunar tanlashingda kutubxonaning roli bormi? Kompyuterning-chi?

8. Kasbni ulug'lovchi qanday filmlarni bilasan? Badiiy kitoblarni-chi?

9. O'quv dargohida kasb egalari bilan uchrashuvlar bo'lib turadimi?

O'quvchi anketa savollariga javob berar ekan, o'z ismi va familiyasini ko'rsatmaydi. Bu esa, erkin fikrlash, tortinmasdan ro'yrostdan javob berish imkonini tug'diradi. Javoblar tayyor bo'lgunga qadar magnitofon orqali yozimli kuy (“Non nashidasi”) eshittiriladi. Shundan so'ng anketa javoblari e'lon qilinadi.

Dilrabo SAYDULLAYEVA,
G'allaorol tumanidagi
42-maktabning amaliyotchi psixologi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'quv jarayoniga qiziqtirish o'qituvchidan ulkan pedagogik mahorat talab etadi. Ularning bor e'tiborini bir nuqtaga yig'ib, yangi mavzuni tushuntirish hamda ushbu mavzuga oid ma'lumotlarni bolalar xotirasiga singdirish uchun ustozlar savol-javob, ko'rgazmali qurollar hamda ta'limiy o'yinlardan foydalanadilar.

“O'qing: savol-javob”

Men 26 yillik ish faoliyatim davomida o'zim o'ylab topgan ayrim ta'limiy o'yinlarni darslarda qo'llab kelaman va yaxshi natija berayotgani guvohiman. Bularndan misol tariqasida “O'qing: savol-javob” o'yinini keltirish mumkin.

Darsning yangi mavzuni mustahkamlash bosqichida o'quvchilarga o'yin sharti tushuntiriladi. Har bir qatorning boshiga ikki tomonga bir xil o'yin shartlari yozilgan ko'rgazmali qurollar (masalan, turli yorqin ranglardagi karton qog'ozlar) qo'yib chiqiladi. Unga ko'ra, birinchi qator boshiga “O'qing”, ikkinchisiga “Savol”, uchinchi qator boshiga esa “Javob” deb yozilgan bo'ladi. O'yin boshlanganda, 1-qatorning 1-partasida o'tirgan o'quvchi sinf darajasiga mos keluvchi hikoyadan bitta gap o'qiydi. Masalan: Daraxtlarning yaproqlari tilla rangga kira boshlaydi (“Kuz” Qutlibeka Rahimboyeva).

2-qatorning 1-partasida o'tirgan o'quvchi mana shu darak gapni so'roq gapga aylantiradi. Misol: Daraxtlarning yaproqlari qanday rangga kira boshlaydi?

3-qatorning 1-partasidagi o'quvchi kitobga qaramagan holda savolga javob qaytaradi: Daraxtlarning yaproqlari tilla rangga kira boshlaydi. Gapni o'qishda xatolikka yo'l qo'ygani o'quvchi, darak gapni so'roq gapga aylantira olmagan o'quvchi va savolga to'g'ri javob qaytara olmagan o'quvchi o'yindan chiqadi. O'yin matndagi gaplar o'qib bo'linguncha davom etadi va har bir qatordan o'yin so'ngiga qadar xatoliklarsiz yetib borgan ishtirokchilar sanaladi. Ularning soni qaysi qatorda ko'p bo'lsa, ana shu qator g'olib hisoblanadi.

Bu o'yin orqali o'quvchida ifodali o'qish, tinglash, e'tiborni bir nuqtaga jamlash, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini farqlash kabi sifatlar rivojlanadi. Qolaversa, savollarga javob qaytarish jarayonida ularning og'zaki nutqi rivojlanib boradi. Ushbu ta'limiy o'yin 2-3-4-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, o'qish fanida hikoya, ertak o'rganish uchun tavsiya etiladi.

Munira QIRG'IZOVA,
Chortoq tumanidagi
44-maktab o'qituvchisi

Katakli daftar nechta?

Nasibaning onasi
Daftar oldi o'ttizta.
Kataklinin aytmayin,
Chiziqlisi to'qqizta.
Topshiriqni bajarish,
Emas uncha qiyin ish.
Mayli, tenglama qiling,
Xohishingizdir, biling.
Qay usulda ishlamang,
Chiqar bir xil natija.
Ishlaganlar, aytinch-chi,
Katakli daftar nechta?

Sut qancha?

Sut bor ikki bidonda,
Bir xildir-a, o'Ichovi.
Ikkovi ham liq to'la,
Qirq litrdir ikkovi.
Sutni yaxshi ko'rasiz,
Ichasizlar anchadan.
O'sha ikki bidonda,
Toping, sut bor qanchadan?

Ro'zimurod BOLQIYEV,
Mirzacho'l tumanidagi
10-maktabning boshlang'ich sinf
o'qituvchisi

Mashrab: "Men shahidi ishqman, o'lsam kafanga chulg'amang" deya hallojona, nasimiyona o'lim topdi.

Mashrab va hurufiy Nasimiy

Mashrab va Nasimiyni o'qirkanmiz ularning ijodiy faoliyati, dunyoqarashi, g'oyaviy-badiiy muddaosi, hatto, hayotiy fojiasi jihatidan ham bir-biri bilan mushtarak ekaniga guvoh bo'lamiz. Mashrab Nasimiyni qator g'azallariga tatabbular yozadi. Ularda tasavvufning qoidalarini davom ettirib, uni rivojlantiradi, so'fioning tafakkurni she'rlarida ifodalaydi. She'riyatda ana shunday jur'atli fikrlarni tashviq va tasdiq etish mubolag'asiz aytish mumkinki, u zamon uchun buyuk insoniy jasorat edi.

Shayx San'ondin bo'lub to'rt yuz
murid sohibkamol,
Ko'rdi tarsozodani, xukbon-u tarso qildi ishq.
Bildi-yu eshitti Mashrabning qarori yo'q ekan,
Zohirin go'yo qilib, botinni bino qildi ishq.

Mashrab yana bir g'azalida Nasimiy haqida:

O'n uchga yetti vaqtim, holi suratda Nasimiymen,
Terimni so'ydilar, mashg'uli bu savdo bo'lib kel-
dim, deydi.

Nasimiy ta'sirini o'zbek shoiri – kufrikda ayblanib, dorga osilgan Mashrab ijodi va "Qissai Mashrab"da ham ko'rish mumkin. Bu qissada ham xuddi shunday hurufiyona ruhni sezamiz. (Hurufiylik yo'nalishi XIV asrning oxirlarida Ozarbayjonda paydo bo'ldi. Hurufiylikning ta'limoti so'fizm ta'limoti kabi diniy-mistik mohiyatga egadir. Hurufiylik harflarning ilohiy kuchiga ishonadilar.

Hurufiylik fikriga ko'ra, "Xudo yashirin bir xazina bo'lib, o'z borlig'ini oshkor qilmoq va o'zini tanitmoq uchun insonlarni yaratgandir", boshqa so'z bilan aytganda, o'z borlig'ini insonda tajassum etgan. Ular arab alifbesidagi 32 harfni muqaddas hisoblab, uni dunyoning butun sirlarining ramzi va ifodasi deb biladi. Hurufiylik tariqatining asoschisi Fazlulloh Naimiy bo'lib, u Nasimiyni ulug' ustoz bo'lgan. Nasimiy hurufiylik mazhabini qabul qiladi va Fazlullohga buyuk muhabbat va chuqur ehtirom bilan ixlos qo'yadi.

Naimiy hurufiylikni targ'ib etganligi tufayli, islom ruhoniylarining ig'vosi bilan Naxchivon yaqinidagi qadimiy Olincha shahrida vahshiyona sur'atda qatl etiladi).

Sharqning Fariduddin Attor, Boborahim Mashrab kabi otashnafas, isyonkor shoirlari mashhur so'fiy va avliyo Mansur Hallojga kuchli e'tiqod qo'yib, o'zlarini uning shogirdi hisoblaganlar. Nasimiy uchun ham Mansur — ilohiy ishq oshig'i, o'z e'tiqodida so-bitlik timsoli. Shuning uchun ham shoir ilk she'rlarini Husayniy taxallusi bilan yozadi. Chunki, Mansurning ismi Husayn bo'lib, uning tariqati husayniya yoki hallojiya nomi bilan mashhurdur. Nasimiyni Mansurga e'tiqodi umrining oxirigacha so'ngan emas, uni ishq yo'lida rahnamo bilib, she'rlarida hamisha otashin muhabbat bilan tasvirlaydi:

Chun baqosizdir, jahonning mol-u mulki ne'mati,
Davlati Mansura yopish, ista umri poydor.

Qur'onning bir necha suralari alif, lom, mim kabi arab harflari bilan boshlanadi; bu ilohiy harflarni mu-fassirlar turlicha talqin qiladilar. Hurufiylik esa, arab alifbosidagi barcha 32 harfni ilohiylashtiradilar. Zero, bu harflar orqali Qur'on nozil qilingan — ular ilohiy kalom mazmunini o'zida ifoda etadi. Binobarin, har bir harfda bir ilohiylik mavjud. Chunonchi, dunyoning yaralishiga ham bir so'z sabab bo'lgan: Parvardigori olam "Kun!", ya'ni, "Bo'li!" degan va bu dunyo vujudga kelgan. So'z esa harflardan iborat. Arab yozuvida "kun" - ikki kof (k) va nun (n) harflaridan tashkil topgan. Nasimiyni quyidagi bayti shu haqda:

Jo'sh qildi aqli kull – keldi vujudga koinot,
Kof-u nun amrindan o'ldi bu jahon yakbor mast.

Shu o'rinda Mashrab 30 ta alifbodagi arabiy harf-larga bag'ishlab nasimiyona baytlar bitgan:

Ay – alifdek qomatingdin ibtido qildim bu kun,
Be – baoloyi dog'i darding dilga jo qildim bu kun.
Te – tilovat qilg'ay erdim oyati ruxsoringni,
Se – savobi xatmi Qur'on intiho qildim qildim bu kun.
Jim – jamolingni ko'ray deb keldim, ey shohi jahon,
He – hayotim boricha man iltijo qildim bu kun.
Xe – xaloyiq ichra xush xulqu nekulik sandadur,
Dol – dilni olg'uvchiga oshno qildim bu kun.
Zol – zoil bo'lsan deb har zamon mehning saning,
Re – rabotning ichra tomiri vafo qildim bu kun.
Ze – zulfing shomidin yig'lab yurub shom-u sahar,
Sin – selobi sirishkimni raho qildim bu kun.
Shin – shakarlik lablaringdin

mehribonlig' ko'rmadim,
Sod – sabrim qolmadi, oh-u navo qildim bu kun.
Zod – zo'ye 'lig' bilan umrim o'todur oqibat,
To – tole sizligimdin ko'p xato qildim bu kun.
Zo – zolim ko'zlarining g'amzasi qildi xarob,
Ayn – aziz jondin kechib, jonim fido qildim bu kun.
G'ayn – g'ariblariga tarahhum qilg'il,
ey sultoni husn,

Fe – farog'at birla arzinni ado qildim bu kun.
Qof – qurbat vaslidan bo'ldi madadkorim Xudo,
Gof – gulzorida ayni muddao qildim bu kun.
Lom – labing-kavsar, tishing-gavhar,
xati la'ling o'qub,
Mim – mehrobi qoshingga iqtido qildim bu kun.
Nun – na bo'lg'ay birgina ko'rsam jamoling, ey pari,
Vov – va'da, dilbarim, ko'ksimga jo qildim bu kun.
He – hazil ermas kishi dog'ini pinhon aylasa,
Lom – alif-lola sifat choki qabo qildim bu kun.
Yo – yorim, dilbarim'ga, dudi ohim sardini,
Hamza sokin – aylabon so'yi samo qildim bu kun.
Pardai ismatda saqla Mashrabi bechorani,
Dilrabo nomahramimni oshno qildim qildim bu kun.

Adabiyotshunos Erkin Musurmonov qayd etishicha: Mashrab "Anal-Haq" deb hayqirgani uchun oyoq-qo'li chopilib dorga osilgan, jonsiz tanasi kulga aylantirilib dengiz yelida to'zg'itib yuborilgan Mansur Halloj, erkin fikrliligi uchun "kofir" deb e'lon qilingan, neftga belangan va shahar markazida yoqib yuborilib, zulmatni sham kabi yoritgan Aynul Quzzot Hamadoni, mo'g'ullar bilan so'nggi nafasigacha kurashgan tanasi qiymalanib tashlansa-da, qo'li bosqinchining oti jilovini qo'yormagan Najmiddin Kubro, odam qiyofasi-da ilohiy bitikni ko'rgan va inson yuzida Haq nomini o'qiy olgani uchun otga bog'langan holda, sudralib, shahar ko'chalarida xor qilingan hurufiylik ustoz Fazlulloh Naimiy va nihoyat Hallojga ixlos qo'yganligi uchun shakkok hukmini olgan va terisi so'yilgan Imodiddin Nasimiy taqdirini ixtiyoriy qabul qildi.

Nasimiy o'zidan keyingi turkiy adabiyotga jum-ladan Fuzuli, Voqif, Lutfiy, Navoiy, Mashrab, Max-tumquli kabi shoirlarga kuchli ta'sir o'tkazgan.

XIV asr oxirlarida Ozarbayjonda paydo bo'lgan hurufiylikning diniy-mistik ta'limoti, namoyandalari-dan biri mutafakkir shoir Said Imodiddin Nasimiy she'riyati Mashrab ijodiga o'zining hamohangli-gi bilan ta'sir o'tkazdi. Shoir uni she'rlarida madh etadi va hurufiy Nasimiy o'limi, Nasimiydek o'lim topishni o'zi uchun sharaf deb biladi va alaloqi-bat shoir Mashrab: "Men shahidi ishqman, o'lsam kafanga chulg'amang" deya hallojona, nasimiyona o'lim topdi.

Mo'min HOSHIKXONOV,
JDPI dosenti,
falsafa fanlari doktori



Mashrab:

Agar chandi ziyorat qilmadim man Ka'bayi zohir,
Tariqat hojisi durmanki, Baytullog'a sig'mamdur.
Gahi bo'ldum fakir-u gohi

shoh-u goh gadodurman,
Ajab devonaman, fardoki Mahshargohg'a
sig'mamdur.

Ey qilan da'voki, shoham, adl-u insofing qani?
Chun safo ahlindan o'lding.

Mashrabi sofiy qani?
Lutf agar haqdan tilarsan, ko'rsat ehson, lutf qil,
Lutf-u ehsoningdan ungan yorga altofiy qani?

Nasimiy:

Kof-u nun amrindan o'ldi kun ila fayakun,
Gar bu lavhning abjadisan, nun ila kofing qani?
Ey Nasimiy, shah jihatdan chun ulashding yor ila,
Bejihot o'ldi hududing, hadd-u atrofing qani?

Mashrab:

G'amza kofir, ishva jodu, jilva qolmoqim qani?
Ko'zi yag'mo, kifriki o'q, jola qalpoqim qani?
Tiyri mujgon g'amzasi ko'p

yor uchun devonaman,
Asli qolmoq, zodi qirg'iz, lola paypoqim qani?
G'unchay gullar ochilmay, za'faron qildi xazon,
Dod etar gul g'unchasig'a: yosumansoqim qani?
Dog'-u dog' ustidadur bag'rim qizil qon ashkdan,
Siymtan ruxsorayi tannuqra burg'oqim qani?
Yor, Mashrab, ishq o'tini qo'ydi jonim uzrakim,
Cho'q-cho'q etti ko'nglum otashpora
chakmoqim qani?

Mashrab Said Imodiddin Nasimiyni ishq tufayli dorga osilish tafsilotini "Ishq" radifli she'rida shunday misralarda ko'rsatadi:

"Kufri aytti!" deb Nasimiy terisini so'ydilar,
Go'sht-u po'stin so'zlatib olamga
go'yo qildi ishq.

“Otning erkagi nima bo‘ladi?”



...Talabalik davrimiz amaliyot o‘tash uchun turli tashkilotlar, televideniye, gazeta-jumallarga borardik. Kursdoshlar Oliy Majlis-u vazirliklar axborot xizmati, vaqt o‘tib yana qaysidir nufuzli muassasalarga yo‘l olishar, mening esa har gal “Ma‘rifat” gazetasidan boshqasini ko‘nglim tusamasdi.

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti xalqaro jurnalistika fakulteti 2-kursida o‘qib yurgan paytlarim ustoz Halim Saidov tashabbusi bilan “Ma‘rifat” gazetasida “Mahorat” tashkil etilib, biz 15 talaba unda qatnasha boshladik. O‘shanda ustoz: “Kim “Mahorat maktabi”da o‘zini ko‘rsatsa, ishga qabul qilinadi, dedi.

Xullas, “Mahorat maktabi”ni tugatdik, oradan to‘rt besh oy o‘tdi. 2012-yili boshida “Ma‘rifat” gazetasiga ishga kirdim. O‘shanda gazeta Abdusamad Rahimov, Halim Saidov, Husan Karvonli, Hulkar To‘ymanova, Baxtiyor Yoqubov singari jurnalistlar faoliyat olib borar, ayniqsa, ustoz Mahmud Sa‘diy atrofidan talaba-jurnalistlar arimasdi.

“Ma‘rifat” — mening taqdirimda

Inson hayotida shunday insonlar bo‘ladiki, bir umr unutmaysiz. Unutmasingizga arziydi ular. Jumalistikaga ilk qadamni “Ma‘rifat”da qo‘yganman desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu dargohda unib-o‘sdim, ulg‘aydim, jumalistikaning katta maktabini shu yerda o‘qiddim. 2008-yilda ishga kirgan bo‘lsam, boshqa joyda ishlashni tasavvur qilmaganman. Bu yil barchaga ma‘lum vaziyat tufayli boshqa ish qidirishga to‘g‘ri keldi. O‘zim haqimdagi ma‘lumotni o‘qigan inson borki, shu paytgacha faqatgina bitta joyda — “Ma‘rifat”da ishlaganimni ko‘rib hayratini yashimaydi. “Buning birgina sababi bor: yo siz “Ma‘rifat”dan ketishni xohlamagansiz yoki ketkizishmagan”. Agar vaziyat taqozo qilmaganda umrimning oxiriga qadar shu gazetada ishlayverardim.

Bakalavrda o‘qishdan ortib bir joyda ishlamaganman. Magistratura kirgach, vaqtim bemalol. Biror joyga ishga kirishni mo‘ljall qila boshladim. Boshidan aytib qo‘yay, radio-televideniye meni qiziqitirmagan. Shu bois, ish qidirib ikki-uchta gazeta bordim. Ota-onamning tavsiyasiga ko‘ra, “Ma‘rifat”ga ham. Bu dargohga ustoz Halim Saidov boshchiligidagi amaliy mashg‘ulot uchun bir necha marta kelganimiz ham bir sabab bo‘ldi. Tanlovim aynan “Ma‘rifat”da to‘xtadi.

Endi darsdan bo‘sh qoldim deguncha, gazeta yurguram. Jamoada ahilik, o‘zaro hurmat, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash kuchli bo‘lgani uchunmi, kunim shu yerda o‘ta boshladi. O‘zimni hali bu yerda ishga kirishga tayyor deb hisoblamas, kim, nima buyursa qilib, qayerga yuborsa borib, bir yilni o‘tkazdim.

Gazetaga kelgan paytim Nargiza To‘xliyevaga biriktirib qo‘yishgan. Ancha payt ishlab, bir qator xabar va maqolalarim gazeta yuzini ko‘rgach “Shu qizni ishga olaylik” degan taklifi aytgan Nargiza opaga bosh muharrir “Hali vaqt bor” debdi.

Yosh, g‘o‘r paytim enasmi, o‘zimcha arazlab bir hafta tahririyatga umuman bormadim. Onam o‘qituvchi, dadamning ham ishi maktab bilan bog‘liqligi uchunmi negadir aynan “Ma‘rifat”da ishlashimni mendan ham ko‘proq ular istashgan. Yosh boladek arazlab yurganimda onamning “Hayot kurashlardan iborat, bittada taslim bo‘lish irodasizlik. Ishga olishmasa ham, oylik berishmasa ham borib, chin dildan ishlayver!” degan tanbehidan o‘zimga keldim.

Chamasi uch yarim yil o‘sha yerda rizq topdim, kasbning og‘ir-yengilini o‘rgandim.

Ko‘p o‘ylayman, gazetada ishlab nima o‘rgandim? Eng avvalo, kasbga sadoqatni o‘rgangan bo‘lsam kerak. Chunki agar ko‘nglim chopmay nimadir yozgan bo‘lsam, u gazetada chiqmay qolib ketar, qayta ishlashga esa sabrim yetmasdi. Nimaki, ko‘nglim chopib yozgan bo‘lsam, unga “Fasl tanlovi”da qo‘shimcha mukofot ham olganman.

“Ma‘rifat” gazetasi va katta jamoa bilan bog‘liq xotiralar ko‘p: esda qolgani ham talaygina. Kulib eslaydigan voqealar ham bor.

...“Adabiyot” bo‘limida ishlardim, ko‘pkari haqida kichkina material tayyorladim. Shoshilinch hozirlangani uchunmi, ichida ayrim kamchiliklarini to‘g‘rilab, bosh muharrir o‘rinbosari Husan akaga olib bordim.

Husan aka maqolani o‘qish chog‘ida matn tagiga chizib, kulib qo‘ydi.

— Tog‘ning bolasi bo‘lib, shuni bilmaysiz, otning erkagi nima bo‘ladi?

Yelka qisdim.

— O‘ylang, gazeta sahifalanguncha toping.

Otning erkagi nima bo‘larkan: birin-ketin yon-atrofida-gi jo‘ralardan so‘radim. Tayinli javob bo‘lmadi. Yana izlay boshladim, oxiri, qishlog‘imizdagi chavandozlarga sim qoqdim.

— Otning erkagi nima bo‘lardi, erkak ot, bo‘ladi-da, — dedi bir chavandoz do‘stim.

Xullas, gazeta sahifalandi hamki, savolning javobini topolmadim. Miyamda shu o‘y bo‘lgani uchun qayta-qayta kitob titkilar, baribir javob topolmasdim. Husan aka bo‘lsa, “Otning erkagini topdingizma?”, deb so‘rab qo‘yar edi.

Oxiri sahifa bosh muharrirga kirar payti Husan aka keldi, sahifalarga bir qur nazar tashlagach, kulib qo‘ydi.

Keyin ko‘pkari haqidagi materialni topdi-da, tagiga chizilgan “otning erkagi”ni o‘chirib yozdi — ayyg‘ir...

Olimjon JUMABOYEV



Bu orada ustoz Halim Saidov bizga dars o‘ta boshladi. O‘quv yili oxirida hamma o‘zi tanlagan dissertatsiya mavzusidan kichik taqdimot o‘tkazishi kerak edi. Men ham “Asqad Muxtor qiralarida publitsist ma‘naviy olami” mavzusida rahmatli ustoz Mahmud Sa‘diy rahbarligidagi dissertatsiyamning qisqacha mazmunini gapirib berdim.

Shu voqeami yoki boshqa sababmi, ertasi kuni Halim Saidov “Hujjatlarimizni olib keling, sizni ishga olamiz” deb qoldi. O‘sha paytda mendan baxtli inson bo‘lmasa kerak. Deyarli bir yil kutgandim bu damlarni. Nazarimda hech kim menday qiynalib ishga kirgan emasdi gazetaga.

Shu tariqa qadrdon dargohdagi faoliyatim boshlandi. Bu yerda nafaqat jumalistika sohasida, balki hayotda ham asqotadigan darslarni olganim — mening yutug‘im. Tahririyatdagilar bilan ona-bola, opa-singil, aka-uka do‘liib ketdik.

Hulkar To‘ymanova “Ma‘rifat”dagi ilk ustozim. Meni bo‘linga ishga olgan kunning ertasiga ta‘tilga chiqib ketgandi. Xullas, yolg‘iz o‘zim ishga kirishdim. Har safar keyingi son rejasi yig‘ilishiga kirishdan oldin Hulkar opamga qo‘ng‘iroq qilaman. Avvalgi sonda chiqqan-chiqmagani qarab qaysi materiallarni tavsiya qilishimni aytadi. Tayyor materiallar ro‘yxati maxsus jurnalga yozib qo‘yilgan. Shu tariqa ishga o‘rganib ketdim.

Eh-he, Hulkar opamdan o‘rganganlarimni yozsam tugamasa kerak. U kezi kelsa talabchan, ishini doim birinchi o‘ringa qo‘yardi. Boshqa tengdoshlarimdan ko‘ra meni ko‘proq yaxshi ko‘rishi o‘zgacha g‘urur bag‘ishlardi. Ishda, o‘qishda, shaxsiy hayotda, farzand tarbiyasida, uy-ro‘zg‘or yuritishda Hulkar opamdan o‘rganganlarim hamon hayotimda asqotmoqda.

Magistraturaning ikkinchi bosqichiga o‘tganimda ukam o‘qishga kirdi. Endi oilada uch nafar talaba kontraktida o‘qiydi. “Qaysi birini to‘laymiz?” deb ota-onamning boshi qotgan. To‘ng‘ich farzandman, buning ustiga 4 yil kontraktida o‘qib qo‘yganman. Endi ukalarimning navbati, deya o‘ylab-o‘ylab bosh muharririmiz Halim Saidovga uchrashdim.

— Ustoz, oyligimni kontrakt to‘lashga o‘tkazsam maylimi?

Zo‘r odatlari bor-da. Nimadandir ajablansa yoki hayron qolsa, ko‘zoynagini yechib birpas odamga qarab turadi.

O‘shanda ham menga birpas qarab turdi-da:

— Oyligingiz qancha o‘zi? — deb so‘radi.

Bir yil oyliksiz ishlashimga to‘g‘ri kelarkan, agar kontrakt pulimni to‘lamoqchi bo‘lsam.

— Oylig olmasdan ishlasa, odamning ishlagisi kelmay qoladi, shuniyam bilasizmi?

— Bilmasam...

— Shartnomangizni olib kelib, hisobchiga berib qo‘ying.

Oradan ikki kun o‘tib, bosh hisobchi to‘lov qog‘ozini qo‘limga tutqazdi. Bosh muharrir xonasiga chopdim. Bir dunyo minnatdorlik so‘zlarim bor edi.

— Rahmat, ustoz... — deya oldim xolos. Xonadan chiqi solib onamga telefon qildim:

— Aya, aya, tahririyat kontrakt pulimni to‘lab berdi, endi qiynalmaysizlar. Oyligimni ham olarkanman.

— Yo‘g‘e, rostanmi?

Onam boshqa gapirolmadi. Bildimki, quvonganidan yig‘layapti.

Birozdan keyin telefon qilgan onam, bosh muharririmizga qo‘shib, butun “Ma‘rifat” ahlini uzoq duo qildi. Xushxabarni hamkasblariga maqtanishga ham ulguribdi.

Milliardlab puli bo‘lsa-da, birovga yordam qilmaydiganlar zamonida bir necha talabanning kontrakt pulini to‘lab berish katta voqea edi, albatta.

Husan aka gazeta bosh muharrir bo‘lganidan keyin o‘zimni avvalgidan ham erkinroq his etishni boshladik. Qaysi mavzuda yozsak ham doim qo‘llab-quvvatlagan. Doimo birga ishlash, maslahatlashib, fikr almashib yurganimiz uchunmi, u kishiga haddimiz sig‘ib istagan mavzuda gapira olardik. Ha-ya, aytgancha, Husan aka meni Reyhan deydigan yagona inson!

U kishining hazil-huzulga o‘ralgan kinoyalari-yu, maqtoylarini ham o‘z o‘mida qabul qilishni o‘rgandik. Husan aka yoshi katta insonlarga ham, endigina jumalistikaga qadam qo‘ygan talabaga ham birdek do‘st bo‘lgan samimiy inson. U kishidan aynan shu xislatlarni o‘zlashtirsa, arziydi.

Xullas, “Ma‘rifat” va unda ishlagan yillarim haqida qancha gapirsam ham adog‘i-ya yetmasa kerak. Hozir qayerda, qanday vazifada ishlamaylik, uning maktabi, bergan ta‘limi bir umr bizga asqotadi.

Rayhona XO‘JAYEVA



1988-yilning yoz oylari. “Yosh leninchi” gazetasida stajyor (o‘rganuvchi)-muxbir vazifasida ishlayman. Oylik maosh yo‘q, gazetada chiqqan maqolalarimga qalam haqi berishardi. Tahririyatimizdan “O‘qituvchilar gazetasi”ga bosh muharrir o‘rinbosari lavozimiga ishga o‘tgan rahmatli Mahkam Rahmonov meni yo‘qlayotganini aytib qolishdi. Bir jhati, hayiqdim. Gazeta ishida sochi oqargan mo‘ysafid jumalist Samarqandning olis bir qishlog‘idan kelgan oddiygina ijodkor qizni nimaga chaqirayotgan bo‘lishi mumkin? U kishi bilan “Yosh leninchi”da bir muddat birga ishlash nasib etgan edi. Yozgan maqolalarimga o‘z munosabatini bildirib, rag‘batlantirib turadigan Mahkam akaning yoniga oshiqib tushdim.



“Ma‘rifat”ning besh bosh muharriri Zukko, xokisor, kamtarin

— Sizning o‘mingiz “O‘qituvchilar gazetasi”da, maoshli ishga o‘tishingiz kerak. Yuring, bosh muharrirning qabuliga kiramiz!

Tahririyat joylashgan hozirgi bino, to‘rtinchi qavat to‘rida gazeta bosh muharriri Ahmadjon Dolimovning xonasi. Mahkam akaga ergashib, imyanibgina ichkariga kirdim. Qisqa muloqotda ustoz jumalist mendagi bor-yo‘q sifatlarini aytib, gazeta bosh muharririga “Ishga olsangiz, yutqazmay-siz!” degandek bir talabni qo‘ydi. Shu tariqa shtatdan tashqarida yurgan yoshlar gazetasi muxbiri 1988-yilning avgustidan boshlab yangi tahririyatga qabul qilindim.

Gazeta katta formatda chop etilar, ayrim sahifalarida ruscha matnlar uchun ham joy ajratilardi. Ancha yillardan buyon bosh muharrirlik qilyotgan rahmatli Ahmadjon Dolimov o‘zbek va rus jumalistlarini bir maqsad-maslak yo‘lida ishlashga undar, xalq ta‘limi sohasidagi muammolarni o‘rgatadigan, tahliiliy-tanqidiy maqolalar yozadigan muxbiri hamisha qo‘llab-quvvatlar edi.

Esimda, Samarqand viloyati Nurobod tumanidan tahririyatimizga shikoyat xati kelgach, uni o‘rganish menga yuklatildi. Xatda yozilishicha, muallima “lodka” uzugi bilan o‘quvchining boshiga urishi oqibatida bolaning boshida o‘simta paydo bo‘ladi. Ota-onasi uni ko‘p shifokorlarga ko‘rsatishadi, ammo dardi zo‘rayib borardi. Surishtirib ko‘rganimda va bemorni davolagan shifokor bilan suhbatlashganimda, bolaning boshida avvaldan o‘simta bo‘lgani, zarbadan keyin dard zo‘rayibroq ketgan va muallima aybdor bo‘lib qolgan. Aslida, pedagogika talablariga ko‘ra, o‘qituvchi bolaga qo‘l ko‘tarishi kerak emas, ammo bilasiz, jahli kichsa, aql qochadi. Xullas, sixni ham, kabobni ham kuydirmay, “Xato” degan maqola tayyorladim va u “O‘qituvchilar gazetasi”da chop qilindi. O‘qituvchini oqlaganim ham, qoralaganim ham yo‘q, betaraf pozitsiyada turdim. Shifokorning asosli fikrlarini keltirdim.

Ko‘p o‘tmay, tahririyatga bemor bolaning ota-onasidan yana shikoyat xati keldi. Ular maqoladan qoniqmagani ham ma‘lum qilishibdi. Ahmadjon Dolimov meni yoniga chaqirib, xatni ko‘rsatdi va noqulayroq vaziyatga tushganimni ko‘rib: — Siz sira xijolat bo‘lmang, Hulkaroy. Boshqa muxbir ham xuddi shunday yo‘l tutgan bo‘lardi. Ularning xohishi bo‘lgicha siz muallimani yerga urib, ustidan mag‘za va ag‘darishingiz kerak edi. Ammo betaraf muallif sifatida voqea tafsilotini bergansiz, — dedi.

Yengil tortdim. Kim bilsin, Ahmadjon akaning o‘mida boshqa muharrir bo‘lsa, menga nimalar degan bo‘lardi? Zukko, xokisor kamtarin bu inson bilan uzoq yillar birga ishlash nasib etib, jumalistikaning past-baland jihatlarini o‘rganib olganimdan bir umr minnatdorman. Ustozimning oxirlari obod bo‘lsin.

Sa‘dulla akaning siymosi

1995-yilning aprel oyida dekret ta‘tilidan so‘ng qadrdon ish joyimga qaytdim. Bu paytda gazeta taniqli shoir Sa‘dulla Hakimov bosh muharrirlik qilar, nashr katta formatda chop etilardi. Hassos shoir avval adabiy xodim bo‘lib ishlagan ayolni bo‘lim mudiri lavozimiga tayinlaganida, to‘g‘risi, ulkan mas‘uliyat bo‘ynimga yuklanganidan cho‘chidim. Axir, katta gazeta bo‘lsa, ziyo-lilar o‘qiydigan nashr. Ammo ko‘p o‘tmay, xavotirim asossiz ekanligiga amin bo‘ldim.

Sa‘dulla aka bosh muharrir sifatida har bir ijodkorni qo‘llab-quvvatlar, mavzuga biryog‘lama emas, balki ikki-uch tomondan yondashishimni talab qilardi. Nafaqat oliyanob rahbarligi, balki insoniy sifatleri bilan ham qalbimizdan joy egallagan ekani, keyinchalik Sa‘dulla aka Prezident devoniga mas‘ul lavozimga tayinlanganida, tahririyat ayollari u kishini ko‘zda yosh bilan kuzatganimizni yaxshi eslayman. Tabiatan ko‘ngli bo‘sh xilqat — ayol zotining yuragini mehr-muruvvati, g‘amxo‘rligi, hammaga teng muomalada bo‘lishi bilan zabt etgan rahbarlar juda kam uchraydi. Sa‘dulla akaga “Ma‘rifat” gazetasida ishlayotgan opa-singillarimizning yig‘lab kul-zatishi nasib qilibdimi, demak, shuning o‘zi ham baxt. Axir, kimningdir yuragidan qiy egallash, kimgadir kerakligini his qilishdan-da, yuksak turadigan tushuncha bormikan?

Sa‘dulla akaning siymosi qalbimizda yashaydi...

14 yillik qadrdon

Mansab, lavozimni qoshiqqa o‘xshatishadi. Galma-gal keladi va ketadi. 1991-yildan boshlab “Ma‘rifat” deya atalgan nashrning navbatdagi bosh muharriri Halim Sayidov rahbarligida rosa 14 yil ishladi. Sa‘dulla Hakimov mas‘ul lavozimga tayinlangan kezlal yosh jumalist Halim Sayidov ham “Ma‘rifat” gazetasida xizmat qilardi. Ko‘p o‘tmay, yangilishmasam, 1995-yil oxirroqida vaqtli matbuot nashrlarini o‘zining qiziqarli maqolalari bilan boyitib kelayotgan Halimjonni gazeta bosh muharririga tayinlashdi. Xursandim. Rahbar o‘zimizniki, chunki chetdan keladigan boshliqqa ko‘nikish, moslashish oson emas. Ijod qilaman degan xodimga hech qanday monelik yo‘q. Tahririyatga kompyuter

texnologiyalari keltirildi, hattoki, deraza oldida tuvalkar paydo bo‘ldi. To‘rtinchi qavat ta‘mirlandi, parket pol laklangach, yangilangandek yaraqlab ketdi. Tahririyat xodimlari bosh muharrirning tashkilotchiligi, tashabbuskorligi va didli ekanligiga ko‘p bora tan berganmiz. Hattoki, Yangi yil bayrami yoki Ramazon, Qurbon hayitlari munosabati bilan tahririyat xodimlariga un, go‘sh, yog‘, shakar kabi oziq-ovqat mahsulotlari tarqatilgan paytlar ham bo‘ldi.

“Ma‘rifat” gazetasining 2007-2008-yilgi taxlamini varaqlagan kishi nashr sahifalarida “Qalb rishtasi” ruini ostidagi turkum maqolalarga ko‘zi tushadi. Xalqimizning asriy an‘anasi — ustoz-shogirdlik munosa-

batlariga bag‘ishlangan 12 ta maqolam oyma-oy bosilib turdi. Halimjon bilan munosib bosh qahramonni tanlash bobida maslahatlashardim. Loyihada uch avlod vakillarining ustoz-shogirdlik munosabati bo‘yicha bir-biriga uzviy bog‘liq taqdirleri ko‘rsatib berilgan. Chunonchi, bosh qahramon, O‘zbekiston Xalq artisti Erkin Komilovning ustozlari Shukur Burhonov bo‘lsa, Erkin Komilov ham endilikda ustozlik maqomiga erishib, aktrisa Lola Eltoevyeva teatr san‘atining sir-asrorlari haqida saboq beradi.

Turkum maqolalarim 2008-yili “Eng ulug‘, eng aziz” ko‘rik-tanlovda birinchi o‘ringa sazovor bo‘ldi. Bunday maqolalar Halim Saidov bosh muharrirlik qilgan yillarda ko‘p e‘lon qilingan. Sezgir, sinchkov, yetti o‘lchab bir kesadigan sobiq bosh muharriri birga ishlagan safdoshlar, qadrdonlar hamisha mamnuniyat bilan tilga olamiz. 2009-yilda Prezident farmoniga ko‘ra, kamina “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jumalist” faxriy unvoni bilan taqdirlandi. Xushxabar bilan ilk bor samimiy tabriklagan va xuddi o‘zi ham shu unvon bilan taqdirlangandek quvongan insonlardan biri gazeta bosh muharriri Halim Saidov bo‘lgan...

Qisqa muddatdagi katta iz

“Ma‘rifat” — taqdir, “Ma‘rifat” saodat, degim keladi. Bu dargohga kelib, kimlar ishlamadi, kimlar o‘z taqdir yo‘lini yaratmadi. Kimdir bir yil, kimdir o‘n yil, yana birov o‘n bir oy. Buyurgani, nasib qilgani. Katta tarixiy yo‘lni bosib o‘tgan muqaddas tahririyatning har bir ijodkorga bag‘ri ochiq. Gazeta ishiga kamtar, bosiq, bilimdon, sinchkov, hayotning past-balandini bosib o‘tgan kishilar rahbarlik qilgan. Muntazam ravishda chop etilgan va o‘z muxlislari qo‘liga yetib borgan ushbu nufuzli nashrga 2010-yilning may oyida Vazirlar Mahkamasining mas‘ul xodimi bo‘lib ishlayotgan Abdusamad Rahimov bosh muharrirlikka tayinlandi. Bu lavozimga ketmay turib “Ma‘rifat” gazetasi bosh muharriri o‘rinbosari vazifasida ishlagan Abdusamadning qadrdon dargohga yuborilishi jamoaga katta shod-u xurramlik bag‘ishladi. Mehnat faxriysi Qutbinisa Fozilova, fidoyi jumalist Qurbonboy Matqurbonov, tajribali mas‘ul kotib Akmal Islomov, sinchkov muasahhihlar Sanobar Hakimova, Oydin Aloviddinova, Surayyo Shayxovalar bilan birga ishlash yangi bosh muharrirga ancha qulaylik, yengillik tug‘dirgan bo‘lsa, ajab emas.

Gazeta haftasiga ikki marta 16 sahifadan bosilar, seshanba va juma kunlari tongotar bo‘lardi. Bunday kezda bosh muharrir qatorida musahhih, mas‘ul kotib, navbatchi

muharrir ham zahmat chekar, har bir sahifa, har bir maqolaning mas‘uliyati, e‘lon qilingandan keyingi taqdiri ko‘z o‘ngimizda turardi.

Ko‘pdan beri miyamda pishitib yurgan g‘oya — o‘zbek xalqiga xos insoniy xislatlar bo‘yicha turkum maqolalar yozish taklifi bosh muharrirga mas‘ul keldi-uy, kamina 2011-yil yanvaridan boshlab har oyda bittasini e‘lon qilib borishga muvaffaq bo‘ldim. “Diyonat”, “Bag‘rikenglik”, “Mardlik”, “Mehr-oqibat”, “Halollik”, “Tadbirkorlik” singari 15 ta maqoladan iborat turkum xuddi ipga tizilgan marjondek shaklga keldi. Aslida, niyatim bu ijodiy loyiha mahsulini “Oltin qalam” xalqaro milliy ko‘rik-tanloviga topshirish edi. 2012-yilning may oyida igna bilan quduq qazigandek, mashaqqat bilan yozgan maqolalarim ushbu nufuzli ko‘rik-tanlov hakamlar hay‘ati e‘tirofiga sazovor bo‘ldi. O‘zbekning 15 xislatiga bag‘ishlangan maqolalar uchunchi o‘ringa loyiq ko‘rildi. Buning zamirida butun tahririyat xodimlari mehnatiga berilgan bajo mujassam edi... Hamon e‘tirof etamanki, “Ma‘rifat” gazetasi nashr etilmasa, uning ahlil jamoasi bir yoqadan bosh chiqarib ishlamasa, men singari qalam tebratadigan ijod ahlining yozgan-chizgan qayoqqa borardi?

2017-yili Abdusamad Rahimov Prezident devoniga mas‘ul lavozimga tayinlandi. Garchand buni jamoa a‘zolari istashmasa-da, yuqori idoraning tayinlovi tahririyatga nisbatan yuksak ishonchdan dalolat berardi. Bosh muharrirning qisqa muddatdagi katta izini, g‘ayrat-shijoatini, rahbarlik madaniyatini, sinchkovligi va puxtaligini u kishi bilan birga ishlagan har bir xodim e‘tirof etadi.

“Ma‘rifat” lotin imlosida

2019-yilning yanvaridan boshlab kirill imlosida chop etib kelinayotgan qadimiy nashr to‘liq lotin imlosiga asoslangan o‘zbek alifbosiga o‘tkazildi. Bunga qadar gazeta-ni ayrim sahifalari ana shu imlodada bosilgani bois, muasahhihlar ancha-muncha malaka hosil qilishgandi. Ochig‘ini aytganda, kirill imlosi men kabi katta avlod vakillariga “qardon” bo‘lib qolgan ekan, ko‘nikish ancha qiyin kechdi.

O‘ylab qararasam, bir dargohda 31 yil ishlab qo‘yibman. Daraxt bir joyda ko‘kardi, ana shu muqaddas dargohda ijod qilib, izlanib, kam bo‘lmadim. To‘rt muharrir qo‘l ostida ishladim, har birining o‘z ushbi, o‘z talablari bor, biri ikkinchisiga o‘xshamaydi. Beshinchi bosh muharrir — Samarqand viloyatining Nurobod tumanida tavallud topib, ijod maydonida o‘z o‘rnini topib olgan ma‘rifatparvar yigit — Husan Nishonov rahbarligida ham bir muddat birga ishlash nasib etdi.

Bosh muharrirning tashabbusi bilan lotin imlosida bosila boshlagan “Ma‘rifat” ta‘lim muassasalariga suv va havoddek kirib bordi. Chunki umumta‘lim maktablari, kollejlit-seylarda ta‘lim jarayoni allaqachon to‘liq lotin imlosiga o‘tib, darslik va o‘quv qo‘llanmalari ham ana shu yozuvda bosilardi.

Qadrdon maskanni tark etib, jon-jigardek aziz bo‘lib qolgan insonlar bilan xayrlashish oson bo‘lmadi. Bunga o‘zimni ancha vaqtgacha ruhan tayyorlab yurdim. Qat’iy qarorimdan taajjublanigan bosh muharrir noiloy ishdan bo‘shashimga rozi bo‘ldi. Axir, hech narsa abadiy emas, ko‘zda yosh, qalbdahayajon bilan qadrdonlar davrasini tark etdim...

Ana, besh muharrir haqida boricha yozganlarim... Bo‘yamadim, bejamadim, maqtamadim, barchasi haqiqat. Bir ijodkor hayotida ularning har biri qanday rol o‘ynaganini ifodalashga urindim. Qay darajada, hukmingizga havola.

Hulkar TO‘YMANOVA,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jumalist

Oʻtgan asrda “Navoiy zamondoshlari xotirasida” nomli kitob nashr etilgani tahsinga sazovor ishlardan boʻlgan edi. Bu – yaxshi oʻylab topilgan nom va buyuk marhumlarni xotirlashning juda ibratli yoʻli sifatida tezda keng jamoatchilik orasida urf boʻldi. Biroq olomondagi suisteʼmolchilik ruhiyati ushbu oʻmakning ham siyqasini chiqarib yubordi. Faqat olamdan oʻtgan buyuklargaгина qoʻllasa arziydigan bu udum arzimaydigan, oʻrtamiyona, oddiy kishilarga nisbatan ham qoʻllana boshladi. Bu ham mayliku-ya, ammo oʻzi tirikligidayoq, goʻyo tiriklayin kafanga kirishga intilayotgan, oʻlsa kafansiz qoladigan murdavor kimsaday, atrof-javonibdan maqola undirib, unmasa, gumashtalari yordamida bir mahallar yozilgan narsalarni topib yoʻndirib, yostiqlay oʻlik matohdan kitob yasashni doʻndirib chop ettiradiganlar koʻpayib ketdi.

Kitobxonlar oldidagi masʼuliyat, uyat, andisha hissi tanazzulga uchradi. Bunday kitoblarni ongli jamoatchilik koʻzini shamgʻalat qilib, doʻkonlarga ochiq-oshkora sotuvga chiqarmasdan, pana-pastqamda xufya tarqatish bemaza tajribaga aylandi. Ayniqsa, lavozimdagi kimsalarga bunday kitoblarni uyushtirish, nashr ettirish va tarqatish tekinga tushadi. Chunki yugurdak va laganbardorlari koʻp. “Tekindan kafen boʻlsa, oʻlmoq kerak”-da! Obroʻparastlik, shuhratparastlik shunchalar lazizmi, birodarlar? Kitob degan moʻtabar, muqaddas qadriyat shu qadar mayda va siyqa oʻyinchoq boʻldimi? Zamondoshlarimiz xotirasida yashayotgan, qanchadan-qancha marhum, chinakamiga buyuk siymolarimiz bor, shunday kitoblarni uhar haqida yarafib, qachon ruhlarini shod etasiz, aziz ziyolilar?

Atoqli adabiyotshunos olimlarimizdan Ibrohim Haqqulov tavalludining 70 yilligiga bagʻishlangan “Mohiyatga muhabbat” (“Tafakkur” nashriyoti, Toshkent, 2019-yil. Adadi 200 dona. Shu kitobdan koʻchirma keltirilsa, betlar raqami koʻchirma yonida beriladi) nomli kitobni oʻqib, oʻzimga koʻp foydali maʼlumotlar oldim. Ayniqsa, O.Sharafiddinov, A.Hayitmetov, N.Karimov, T.Mirzayev, B.Nazarov, O.Safarov, R.Vohidov kabi katta olimlarimiz va E.Vohidov, Sh.Xolmirzayev, E.Aʼzam, X.Davron, N.M.Raufxon, N.Eshonqul singari yetuk shoir-yozuvchilari-miz tomonidan yozilgan maqolalar juda maroqli. Afsuski, bu maqolalarning koʻpchiligi ancha avvallar yozilgan. Ushbu maqolalarning mualliflari (aksariyati marhum) tavsif etilayotgan shaxs keyingi 30–40 yil ichida qanchalar oʻzgarib ketgani va faoliyatidagi ahvoli-ni bilganlarida, bunday maqolalarni yozarmidi-yoʻqmi dargumon.

Kitobni oʻqir ekanman, baʼzi maqolalar mening dardimni, maʼnaviy jarohatimni yangiladi. Balki ular shu maqsadda kiritilgandir. Kitob chiqarish jarayonida-gi hozirgi davrga xos, umumiy nazorat-sizlik ushbu nashrda ham sodir boʻlib-di. Kitobning titil varagʻida marhum Toʻra Mirzayev masʼul muharrir, Ergash Ochilov ilmiy muharrir, Sayfiddin Rafiddinov, Sirdaryo Oʻtanova taqrizchi, Na-siba Bozorova, Munis Hakimov toʻplab

nashrga tayyorlovchi sifatida koʻrsatilgan. Lekin ularning birotasi vazifasini masʼuliyat bilan halol bajarmagan. Men ular bilan kitobning nashr jarayoni haqida suhbatlashganimda, ulugʻidan tortib kichigigacha kitobni bosilib chiqishidan oldin oʻqimagani yoki toʻliq oʻqimagani-ga iqrar boʻldi. Aslida, har qanday kitob bosilib chiqquncha bunday masʼul shaxslar tomonidan bir emas, bir necha marta koʻzdan kechirilishi lozim. XX asr adabiyotshunosligi va nashriyotchiligi-da shunday qonun-qoida taomilda edi. Aftidan, bunday katta (523 bet) kitobni bir marta oʻqib chiqish mehnati ularga ogʻirlik qilgan yoki “Qassob koʻpaysa, mol harom oʻladi” qabiladagi ish sodir boʻlgan. Hali tirik boʻlaturib, oʻzi haqida bunday ulkan kitobni tuzdirib, nashr ettirish tobora urf boʻlayotgan shaxsiyat-parastlik, manmanlik, kibr-u havoning yaqqol namunasidir.

Yubilyar siymosini porlatib turgan qator begʻaraz maqolalar orasida eng gʻarazgoʻy narsa Nabijon Boqiyning “Hisobot (Ibrohim Haqqul hayotidan lavhalar)” sarlavhali luqmasi boʻlgan. Bu shunday tuturiqsiz narsaki, uni na hikoya, na xotira, na hangoma, na hajvi-ya turkumiga kiritish mumkin. Harqalay, nimadir deb yuritish kerakligi uchun biz uni shartli ravishda “luqma” deb atadik. Biroq luqmada ham mantiq boʻlishi kerak. Bu narsaga “luqma” degan nom ham hayf. N.Boqiyning oʻzi kim va uning yozgan narsasi nima-yu, yuqorida biz tilga olgan moʻtabar siymolar kim hamda ularning yozgan nafis maqolalari nima? “Teng tengi bilan, tezak qopi bilan”, degan ona xalqimiz. Darhaqiqat, xuddi bir tovoq toʻy oshining oʻrtasiga goʻsht oʻrmiga goʻng solib qoʻyilgan-day boʻlibdi. Yubilyar shunday jirkanch narsani qanday qilib oʻzining toʻyona toʻplamiga ravo koʻrganligiga aql bovar qilmaydi. Bu toʻplamga kirgan narsalar uning ixtiyoridan tashqarida boʻlmagan, albatta. Oʻzining 70 yillik toʻyidan esda-lilik qoladigan muhtasham kitobga nima-ni kiritib, nimani kirgizmaslikni u yetti oʻlchab, bir kesganligi aniq. Boshqacha boʻlishi mumkin ham emas.

Qizigʻi shundaki, N.Boqiyning luq-masi birinchi navbatda yubilyarning shaʼnini bulgʻab turibdi. Buning nimasi I.Haqqulovning hayotidan lavhalar ekan?

Uni oʻqigan odamlar I.Haqqulov beta-yin bir yozuvchi bilan hamtovoq ekan, uning hayotidan lavha, Abdulla Avloniy aytganiday, “shoʻl-doʻr-shoʻl-doʻr” choy ichish-u, bir-biriga “moʻl-doʻr-moʻl-doʻr” termulib, kimlarnidir gʻiybat qilishdan iborat ekan-da, deb oʻylamaydimi?

Poyintar-soyintar gaplar orasida nima emish: “Nomi oʻzgargan Mar-kazqoʻmdan yana yetti nafar azamat qoʻqqis kelib ilm dargohini tappa bosa-di va qirq kecha-kunduz qimirlamasdan direktor xonasida oʻtirib, qirq yil davomida toʻplangan xalq ogʻzaki ijodi namunalarni ham elakdan oʻtkazib yubora-di. Oxiri: “Faktlar tasdiqlanmadi”, degan xulosa chiqarib ketadi taftishchil-lar...” (305). Bular boʻlmagan va kurak-da turmaydigan gaplar. I.Haqqulovni qahramon koʻrsatish uchun bunday uy-dirman toʻqish shart emas edi. N.Bo-qiyning “kashf-u karomati” siz ham kitobdagi taʼrif-tavsiflar uni qahramon darajasiga koʻtarib qoʻygan. Balki N.Boqiy 2015-yili Til va adabiyot insti-tuti faoliyati Oʻzbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati va Oʻzbekis-ton Respublikasi Moliya vazirligining nazorat-taftish komissiyasi tomonidan ikki oy tekshirilgani, oqibatda, ish ter-govga oshirilib, yarim yillik tergov jara-yonidan soʻng, institut ishi jinoyat sudi-da koʻrilganiga shama qilgandir? Lekin ilmiy-ijodiy jarayondan uzoqda yurgan N.Boqiy bu tafsilotlarni qayerdan bi-ladi? Ehtimol, yubilyarning oʻzi unga maʼlumot berib, toʻplamga biror narsa yozishini soʻragandir? Agar shunday buyurtma asossida yozgan boʻlsa ham, bu luqma muallifning oʻta noʻnoq yozuv-chiligidan dalolat beradi. Qolaversa, u nazarda tutgan voqea juda jiddiy, katta tarix. U haqda bu tariqa yengil-yelpi, dudmal qogʻoz qoralashning oʻzi be-maʼnilikdir. Undan koʻra, samimiy tilagi boʻlsa, Usmon Azim, Erkin Aʼzam, Xur-shid Davronday ikki ogʻiz dil soʻzlarini yozib qoʻya qolmaydimi? Balki bu nar-sani N.Boqiy yozmagandir ham, yana kim biladi deysiz?

Luqmaning asosiy maqsadi I.Haqqulovga yoqmaydigan ikki olimni haqorat-lash boʻlgan. Ulardan biri “novcha”, “falonchi”, “katta olim”, “mumtoz adabiyotimiz bilimdoni” deya tilga oli-nadi. Goʻyoki I.Haqqulovning dalahov-lisida E.Aʼzam, N.Boqiy uchalasi choy-xoʻrlik qilib oʻtirishganida ikki mehmon kirib keladi va shunday muloqot sodir boʻladi: “Falonchi oʻrnidan turib: – Ibrohimjon, men ataylab sizdan kechirim soʻrash uchun keldim, – dedi qoʻllarini koʻksiga qoʻyib. – Katta boshimni kichik qilib keldim, meni ke-chiring, juda koʻp bora sizga nohaq tosh otdim, nohaq tanqid qildim, nohaq... Il-miy munozaralar chogʻida men koʻp no-haq boʻlganman, shunga...” deydi (306). Mehmonlar joʻnagach, ikki-uch kundan keyin ulfatlar yana bir piyola choy ustida uchrashadilar. Shunda gap yana “novcha” olimga taqaladi: “– U kishi yaxshi olim, lekin...”, dey-di E.Aʼzam.

“– Toʻgʻri, yaxshi olim u kishi, lekin bir “lekini” bor”, deydi I. Haqqul.

“– Aybgʻinasi boʻlmasa, yaxshi odam boʻlardi”, deb luqma tashlaydi N.Boqiy (307).

Shundan soʻng “oradan uch oyga yetib-yetmasdan vaqt oʻtadi-yu, birdan I.Haqqulov ishlaydigan ilm dargohini yana eski Markazqoʻm idorasidan kel-gan nufuzli taftish hayʼati kelib tappa bosarmish” (oʻsha bet). Goʻyoki, u olim I.Haqqulovning ustidan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti devoniga yoz-gan-u, devon taftish hayʼatini joʻnatgan. Yana I.Haqqulovni qahramon koʻtarish, jabrdiyda koʻrsatish, ideallashtirishga qaratilgan ifoda. Qaysi asrda, qanday saviya bilan yashayapsiz, azizlar? Bir kishining xati bilan Prezident devonidek oliy idora taftish hayʼatini yuboradimi? Bu gapga kimni ishonirmoqchi boʻlgan-siz? Mabodo, yuqoridan taftish hayʼati kelsa, uning ortida jiddiy asos boʻladi.

Gapning indallosiga kelganda, I.Haqqulov deydi: “– Zigʻirdek manfaat aralashsa, bas, u kishi birdan toʻnini teskari kiyib oladi. Uning mezonini – manfaat, xolos, – Esiz, ilm-a! – deb bosh chayqaydi E.Aʼzam” (oʻsha bet).

Tanib olish qiyin emaski, gap filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimi, Xalqaro Bobur mu-kofoti sohibi, zahmatkash matnshunos olim Vahob Rahmonov haqida ketyapti. Men kitobni oʻqiganimdan soʻng V.Rah-monovga telefon qilib, boʻlgan voqeani soʻrab-surishtirdim. U ham kitobdagi hangomadan xabardor ekan. V.Rah-monov, haqiqatan ham, bir hamshahrining tashvishi bilan I.Haqqulovning dalahov-lisiga borganini, lekin kitobdagi gaplar boʻlmaganini aytdi. Rosti Xudoga ayon. Xoʻp, boringki, V.Rahmonov borib ke-chirim soʻragan ham boʻlsin. 80 yoshni qoralayotgan ulugʻ yoshdagi olimning oʻzidan oʻn yoshlar kichkina, shogir-di tengi odamdan kechirim soʻragani – “Eman daraxtinging egilgani – singani, er yigitingni uyalgani – oʻlgani” emas-mi? Bu oʻsha yerda qolib ketishi lozim boʻlgan gap emasmu? Buning nimasini luqma buyurtirib kitobga kiritib yu-ribsiz? Bu – oʻtaketgan maydakashlik emasmu? Axir, siz-u biz, yana qancha avlodlar shu V.Rahmonovning “Sheʼr sanʼatlari” qoʻllanmasidan oʻrganib bilimimizni oshirganmiz-ku! Demak, V.Rahmonov siz-u bizga ustoz maqomi-da turadi.

Men V.Rahmonovni himoya qilmoq-chi emasman. U kishi ham oʻziga xos xarakterga ega shaxs. U bilan ham matbuotda matnshunoslik yuzasidan keragi-cha bahslashganman. Kimda kamchilik yoʻq? N.Boqiy kim boʻlibdiki, V.Rah-monov haqida “Aybgʻinasi boʻlmasa, yaxshi odam boʻlardi”, deb masxara-laydi?! “Oʻzgalar aybidan kulmagil zin-hor, sening ham ustingdan kulguvchilar bor!” “Ishtoni yirtiq, tizzasi yirtiqqa kuladi”mi? V.Rahmonov sahifalar-da lugʻatsiz sharhlab bera oladigan bir baytni N.Boqiy sharhlash, tushunish nari tursin, toʻgʻri oʻqib bera olmaydi-ku?! U kishi “Essiz, ilm-a!” deya bosh chayqay-digan darajadagi kimsa ham emas.

boʻlsa, oʻlmoq kerakmi?

Hazrat Alisher Navoiyning:
*Kishikim qilsa olimga taʼzim,
Qilur goʻyoki paygʻambarga taʼzim.
Hadis oʻlmish nabiyydin oʻyla hodis
Ki, olim keldi paygʻambarga voris*

degan saboqlarining javobi shu-mi? Qani, bu yerda oʻzbekona andisha, odamgarchilik, milliy axloq-odob?!

I.Haqqulovning: “Zigʻirdek manfaat aralashsa bas... Uning mezonini – manfaat, xolos”, degan gapi ham tuhmat. Aksincha, I.Haqqulovning oʻzida ham manfaatparastlik kuchli. U matnshunos olim boʻlmay turib, Navoiy toʻla asarlar toʻplamining 5 tomiga nashrga tayyor-lovchi va masʼul muharrir boʻlib oldi. Birovlarning mehnati evaziga oʻn mil-lion soʻmlab qalam haqi ishlab oldi.

V.Rahmonovda ham manfaatparast-lik bor. Lekin “uning mezonini – manfaat, xolos” emas. U – haqiqiy matnshunos olim. Qoʻlyozma manbalarni yaxshi oʻqiydi, tushunadi, kezi kelgan-da, qilni qirq yoradi. Oʻbekistonda ik-kita matnshunos boʻlsa, bittasi – shu. Bu – mening fikrim. Akademik Alibek Rustamov esa maqolalaridan birida: “Oʻzbekistonda bironta matnshunos yoʻq. Vahob Rahmonov bundan mustas-no”, degan ekan. Kerak boʻlsa, V.Rah-monov bir institut bajaradigan vazifa-ni bir oʻzi bajargan vaqtlar boʻlgan. Alisher Navoiy “Xamsa”sining besh dostonini ilmiy-tanqidiy matnlar asosi-da besh muhtasham kitob shaklida nas-riy bayonlari bilan birga lotin yozuvida birinchi marta bir oʻzi 2006-yilda Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti orqali chop ettirgani fikrimizning yorqin dalilidir. Xoʻsh, Na-voyi asarlarini lotin imlosida chop etish zaruriyat boʻlib turgan bir paytda qaysi ilmiy-tadqiqot instituti yoki qaysi ijodiy jamoa shu ishni amalga oshira olgan? Hech kimning xayoliga ham kelmagan. U tezkorlik bilan, juda qattiq ishlaydi va nashriyotlar bilan til topishib, uloqni ilib ketadi. Katta daromadni ham bitta oʻzi oladi. Yoki boshqalar nashr etgan kitob-larning xatolarini topib, qip-qizil qilib chizib, nashriyot va yuqori idoralarga olib boradi va yana uloqni oʻziga ogʻdi-rib oladi. Buni – uddaburonlik deyдилar. Bar toʻkida bir ayb. Bunday ravishi bilan u boshqa hamkasblariga raqib, xudbin, manfaatparast, gʻalamis boʻlib yomon koʻrinadi. Yuzingda koʻzing bormi demasdan matbuotda qoʻpol tan-qid qiladi. Ustoz B.Qosimov bilan ik-kalamizning 10-sinf “Oʻzbek adabiyoti” darsligimizni ham “Bir yolgʻonda qirq yolgʻon” sarlavhali maqolasida juda qoʻpol tanqid qilganida, biz ham xafa boʻlganmiz, dilimiz ogʻrigan. Lekin buning uchun unga kek saqlab, haqorat-lab, taʼqib etmaganimiz. Odam-da! Qolaversa, – bu kurash. Lekin u, baʼzi-larga oʻxshab, tekinoxʻr, ilmiy oʻgʻri, matnshunoslikda isteʼdodsiz muttaha-m emas. U – salohiyatli va mehnatkash. Qora mehnatdan erinmaydi. Lekin matnshunos olim sifatida u ham xato-larga yoʻl qoʻyadi, avliyo-oblo emas. Mana, 2015-yili “Oʻzbekiston” nashri-

yotidan “Mumtoz soʻz sehri” nomli ka-ta kitobi chiqdi. Kamchiliklar manaman deb turibdi. U bisotidagi maqolalari bi-lan kitobini bundan ikki chandon sifatli chiqarishi mumkin edi. Oʻzi tayyor-lamaganmi, shoshib tayyorlaganmi, nima boʻlgan, bilmayman. Kitobni oʻqishim bilan, eʼtirozlarimni oʻziga aytdim. Vaqt topishim bilan, kitobi haqi-da bir maqola yozish niyatim bor. Unga zarba berish uchun emas. Matnshunos-lik boʻyicha har kuni kitob chiqmaydi, fan sifatida oʻqitilayotgan bu sohani ham rivojlantirish kerak. Siz ham, zoʻr boʻlsangiz, pana-pastqamda mayda gap qilib yurmasdan, kitobi haqida bir ilmiy, tahliliy, tanqidiy maqola yozing, ilimga foydasi tegsin.

Insonning jismoniy xususiyatlarini asos qilib olib, unga laqab taqash eng maʼnaviy tuban odat va axloqsizlikdir. V.Rahmonovning boʻyi balandligini pisanda qilib, unga “novcha” deb laqab qoʻyishga N.Boqiyning nima haqqi bor? N.Boqiyning boʻyi oldida, albatta, V.Rahmonovning boʻyi novcha koʻrinda-da! Bu uning aybi emas-ku! Xoʻsh, boʻyi pastligini asos qilib olib, N.Bo-qiyini pakana, pacha-qoʻy pacha-qazda deb atasak, qanday boʻladi?i? Yoki N.Bo-qiyning nutqiy kamchiligi bor. Duduq-lanadi, duduqlangani sababli gaplari portlab chiqadi, tez, chala, tushunar-siz gapirib qoʻyadi. Buni uchrashuvda qoniqmagani talabarlardan ham eshitgan-miz. Xoʻsh, shu asosda unga “gungalak” yoki “soqov” deb laqab qoʻyishsa, qan-day botarkan?! “Pichoqni avval oʻzing-ga ur, ogʻrimasa, birovga ur”, degan dono xalqimiz. Umuman, laqab qoʻyish hali tarbiyasi chala, voyaga etmagan quyi sinf oʻquvchilariga xos xususiyat. Voyaga etgan odamlarda bu xususiyat barham topadi.

Darvoqe, suhbat davomida N.Boqiy: “– Faol kurashadigan yana bittasi bor, – deyman kulib, – Xoʻrozxoʻja deyдилar uni”, deya bizga ham laqab taqib yubor-gan familiyamizga ishora qilib. Bu, shaksiz, I.Haqqulov koʻnglining tagidan boʻlgan. Hayronman, oʻn yilda bir tasodifan koʻrishib qolmasa, N.Boqiy bilan deyarli koʻrishmaymiz. Koʻrish-ganda ham, hurmatli va samimiy muo-malada boʻlganman. Oʻtgan oʻquv yili-da “Adabiyotshunoslik asoslari” fanidan maxsus topshiriq berib oʻqittirib, uning “Qatnoma” asarini bir juft dars soatida talabalarga muhokama qildirganman. Oʻquv dasturida yoʻq edi, oʻz tashab-busim bilan shu ishni amaliy darsda bajartirganman. Qisqa fan soatlarida bir yozuvchiga eʼtibor boʻlsa, shunchalar boʻlar-da! N.Boqiyning bu gustohona qiligʻi mening xizmatlarimga nisbatan mukofotmi – jazomi, tuhmatmi? Rus tilida “zakon podlosti” – pastkashlik qonuni degan bir tushuncha bor. Uning bu qilinishi shu tushunchaga toʻgʻri kel-sa kerak.

Mening “faol kurashadigan”ligim-dan unga nima zarar yetgan ekan? Aslida, faol kurashadiganlar hisobiga jamiyat barqarorligini saqlab turadi. Faol kurashadiganlar koʻproq boʻlsa,

xalqimizning maʼnaviyati bundan-da, yuqoriroq boʻlardi. Arpasini xom urgan boʻlmasam, N.Boqiyning menda nima xusumatini boʻlishi mumkin? Yoʻq, bu I. Haqqulov fitna sanʼatining mahsuli. U oʻchakishish, odamlarni bir-biriga oʻchakishtirishga ustasi farang boʻlib ketgan. Doktorlik dissertatsiyam OAK-ka borgan kezlarda, ekspert kengashi-ni raisi mening talabalik davrimdan ustozim, diplom ishining ilmiy rah-bari professor B.Qosimov, I.Haqqulov esa uning aʼzolaridan biri edi. Ishim 50 ga – 50 ovoz olganida, ekspert ken-gashi raisi 2 ta ovozga ega boʻlib, ik-kinci ovozdin foydalanish huquqi bor edi. U ikkinchi ovozin ham bersa, 51 foiz ovoz bilan ishim oʻsha bos-qichdayoq tasdiqlanib ketardi. Lekin I.Haqqulov B.Qosimovning pinjiga kirib, mening ishimga qora taqriz yozib, ustozimni yoʻldan urgan. Ish choʻzi-lavergach, men B.Qosimovdan qora taqrizchi kim ekanligini bir-ikki soʻra-ganimdan keyin, u mendan arazlagan. Ishim Prezidiumda koʻrilganida, katta olimlardan biri B.Qosimovdan: “Nega ikkinchi ovozingizni shogirdingizga bermadingiz?” deb soʻragan va ustoz-im mulzam boʻlgan. Shundan soʻng B.Qosimov bilan doʻstona munosabat-larimiz, 30 yillik oilaviy bordi-keldimiz (u kishi tumush oʻrtogʻimning diplom ishiga ham ilmiy rahbar boʻlgan) bar-bod boʻlgan. Diydor qiyomatga qolgan. Bunga I.Haqqulovning meni yiqitishdek gʻarazli niyati sabab boʻlgan. Bu fi-na tarixini marhum ustozning uylariga taʼziyaga borganimda, ustozim soʻnggi kunlaridan birida aytib bergan ekan, rah-matli kelinoyim Matluba Qosimovadan eshitganman.

Basharang qiyshiq boʻlsa, oynadan oʻpkalama

Toʻplamda notoʻgʻri maʼlumot-lar, asossiz va bemavrid iddaolar bayon etilgan, soxta, koʻchirmakashlik uslubida yozilgan maqolalar ham bor-ki, ular kitobning saviyasi bir tekisda saqlanishiga rahna solgan. Sultonmurod Olimov: “Ibrohim aka, yana bir labo-rant va kamina – uch kishi qariyb yelka-ma-yelka oʻtirib, bir-biriga taqab qoʻyil-gan ikki stoldan foydalanar edik” (90), deb yozibdi. Bu – yolgʻon maʼlumot. U paytda I.Haqqulov bizning Oʻzbek adabiyoti tarixi boʻlimimizda emas, Folklor boʻlimida ishlar edi. Ikki stolda uch kishi emas, bir stolda ikki kishi oʻtirib ishlar edik. Mavhum qilib yozil-gan “yana bir laborant” – men edim. Biz – Sultonmurod ikkalamiz boʻlimda ilmiy xodim koʻpligi, joy yetishmasligi, eng yosh ekanligimiz uchun, bir kich-kina yozuv stolidan oʻtirib besh tomlik “Oʻzbek adabiyoti tarixi” tadqiqotining nashrdan oldingi mashinkalangan nus-xasini “slicheniye” (oʻqib, xatolarini uch nusxada tuzatish) qilganmiz. Qoʻllari-mizda ruchka, piska, oʻchirgʻich. Xa-tolarini oʻchirib, qora siyohli ruchkada

chiroyli, nafis qilib tuzatishimiz kerak edi. Joy tor, ish ogʻir boʻlishiga qara-masdan, yoshlikning shashti bilan kim koʻproq sahifani “slicheniye” qilishi boʻyicha musobaqalashardik. Yolgʻon deganimning sababi – Sultonmurod xotirasi pasaygani yoki adashgani uchun maʼlumotni notoʻgʻri koʻrsata-yotgani, meni “yana bir laborant” deb bekitib oʻtayotgani yoʻq. U koʻra bila turib shunday ish tutgan. Nega? Chunki Sultonmurod 8-sinf “Adabiyot” darslik-majmuasining muallifi boʻlib olganidan soʻng, uch nashr mobaynida koʻp jiddiy ilmiy xatolarga yoʻl qoʻydi.

Jumladan, bir-ikkitasini aytсам, Na-voiyning yoshligida yozgan “Kelmadi” radifli gʻazalini 1492-yil, yaʼni Jomiy yafotidan keyin (bu paytda Navoiy 51 yoshda boʻlgan) yozilgan degan xato maʼlumotni kiritib, uning sakkiz yil oʻqitilishiga sabab boʻldi. Ilmiy asos-lanmagan “begona bayt” tushunchasi-ni darslikka olib kirib, uch nashr – oʻn ikki yil mobaynida oʻqituvchi, oʻquvchi, metodist, tadqiqotchilarni adashtirdi. Men uning xatolari haqida Respubli-ka Taʼlim markaziga murojaat qildim, matbuotda tanqidiy maqolalar chiqar-dim. Ayrim xatolarini 3-nashrda tuzatdi, baʼzilarini oxirigacha tuzatmadi. Xalq manfaatini koʻzlab haqiqatni aytganim-niing jazosiga u meni “yana bir laborant” (goʻyo oʻzi laborant boʻlmagan) deya kamsitib oʻtgan. Tanqid uchun doʻstlik rishtasini uzib, oʻzicha qasos olgan.

Sayfiddin Rafiddinov ham yax-shi maqola yozgan. Lekin maqolaning oʻrtasida Navoiy 10 tomlik toʻla asarlar toʻplami tanqidchilari toʻgʻrisida ortiq-cha ehtirosga berilib, bemavrid iddaolar qilgan. Shusiz maqola yubiley kitobiga juda mos edi. 10 tomlik tanqidchilari haqidagi mulohazalarini alohida maqo-la qilib, biror gazeta yo jurnalga bersa boʻlardi.

Mazkur nashr haqida ilmiy-tanqidiy maqola yozganlardan biri menman (N.Jumaxoʻja. Alisher Navoiy asarlari matnshunosligida maʼnaviy huquq va huquqiy madaniyat masalalari. “Alisher Navoiy va XXI asr” mazuyidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. T., 2019-yil. 20-24-betlar. N.Jumaxoʻja. Nuqsonsiz nashr orzusi. Alisher Na-voiy asarlari nashrida nega xato koʻp? “Huquq va burch” jurnali, 2019-yil, 2-son, 30-35-betlar). Shuning uchun S.Rafiddinovning achchiq, ammo asos-siz taʼna-dashnomlariga javob yozish lozim deb bildim.

Avvalo, shuni aytayki, men ush-bu nashr uchun daʼvogar yoki talabgor boʻlmaganman, unga nashr mualliflari bilan sheriklik qilishga talashmagan-man. Shuning uchun mening tanqidiy mulohazalarim tama va hasaddan mut-laqo xoli, ilm hamda Navoiy merosini oʻqiydigan xalq manfaatlarini nuqtayi nazaridan xolis yozilgan.

Nusratullo JUMAXOʻJA,
filologiya fanlari doktori,
Alisher Navoiy nomidagi
Oʻzbek tili va adabiyoti universiteti
professori

(Davomi bor.)

Mulohaza

Rus tili darsimi yo bog'dorchilik?

Rus tili fakulteti. Hamisha orqa partada o'tiradigan 3-4 talaba ko'p e'tiborimni tortgan. Ular rus tilini yaxshi bilmas, tayyor matnni ham eplab o'qiy olmasdi. Shu tufayli darslarda javob berishiga to'g'ri kelib qolsa, xijolatdan qizarar, sessiyalarda unga yalinib, bunga yolvorib, arang uch baho olardi. Ustozlardan ko'p dakki eshitadigan, boshi egik, uyatchan bu talabalar bir kuni meni lol qoldirdi:

Ekologiya darsi. Ustoz kuyib-pishib mavzu tushuntiryapti. Birdan gap o'simliklarga borib taqaldi. Paxta yetishtirish, loviya ekish, kartoshka undirish, meva va sabzavotlar eksporti haqida gap borar ekan, ustoz ham berilib so'zlay boshladi. Azbaroyi mavzu qiziganidan ko'pchilik tilga ham e'tibor bermay, muloqot o'zbek tiliga o'tib ketdi. Bir payt orqa partadan bir yigit eksport haqida qizg'in so'zlay boshladi. Gaplari shunchalar ma'noli, mantiqli ediki, beixtiyor ustoz ham uning fikrlarini qiziqib tinglay boshladi. Xiyol o'tmay, boshqasi loviya yetishtirish bo'yicha bilganlarini gapira ketdi. Asta orqaga o'girilar ekanman, hamisha boshi xam, yuzi qizarib, ko'zlarini u yon-bu yonga olib qochib, darslarni tamomlaydigan boyagi talabalar gapirayotganini ko'rib, hayratim ortib ketdi. Ularning ovozi dadil edi, ko'zlari yonib turardi. O'zi gapirayotgan so'zlarning mohiyatini anglab gapirish, o'zini qiziqtiradigan, tushunadigan mavzuda so'zlash insonga shu qadar o'zgacha kayfiyat baxsh etarkan-da, dedim o'zimga.

Keyinroq, tanaffus payti o'sha yigitlardan ikkitasini suhbatga tortdim:

— Boyagi gapirishlarini ko'rib, ochig'i lol qoldim. Shundoq qiziqishlarning bor ekan. Bu sohada ma'lum bilimlarga ham ega ekanliklarning ko'rinib turibdi, rus tili fakultetida nima qilib yuribsizlar? Qishloq xo'jaligi sohasida yoki iqtisod, biznes yo'nalishlarida o'qisalaring bo'lmaydimi? O'zlaring ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lgan yo'nalishda bilimlaringni yanada mustahkamlash yaxshiroq emasmi? — dedim.

— Ey, nimasini aytasiz. Ota-onamga bir necha marta aytdim, o'qituvchi bo'lasan, deb turib olishdi. Ishonasizmi, birinchi kursda superkontraktda o'qiddim. Shuncha pul-a. Rosa alam qildi. Bu pullarni eksport biznesiga tiksam, qancha daromad olardim, — deb qoldi yigitlardan biri. Boshqasi ham shunga yaqin gaplarni gapirdi. Xullas, ayon bo'ldiki, bolalar bu yo'nalishni yaqinlarining qistovi va bosimi ostida tanlagan.

Yaqinda bir tanish ayol bilan suhbatlashib qoldim. Aytishicha, farzandi haftaning muayyan kunlari maktabga bormaslik uchun bahona qidirar, borgim


kelmayapti, deb xarxasha qilarkan. Bir-ikki hafta o'tib, onani nimaga aynan shu kunlari bolasi o'zini bunday tutishi qiziqtirib qolibdi va farzandini so'roqqa tutibdi. Emishki, haftaning shu kunlari ma'lum fandan dars o'tadigan o'qituvchi sinfga kirishi bilan, men sizlarga bir voqea aytib beraman, derkan-u, shu bilan dars vaqti tugaguncha o'z hayotidan hikoyalar so'zlab berarkan. Vaziyat shu darajada ekanki, o'sha o'qituvchi dars o'tadigan sinflarning barcha o'quvchilari uning turmush o'rtog'i kim, ismi nima, qayerda ishlaydi, nechta farzandi bor, ularning o'qish va ish joylari, qiziqishlari, nabiralari, ularning qiliqlari, hatto, uy hayvonlarining xarakteristikasigacha — hammasini bexato bilib qolibdi. Axir har dars, naq qirq daqiqa o'qituvchi hayotidan lavhalar eshitaverib yod bo'lib ketgan-da. "Axiyri, o'sha o'qituvchi na-

faqaga ketdi-yu, bolamning xarxashasiyam tindi, — deydi ayol. — Ungacha esa, ikki yil sabr qilishimizga va aynan o'sha o'qituvchi fanini repetitor yollab o'rganib turishimizga to'g'ri keldi".

Xo'sh, yuqoridagi ikki voqeani bir-biriga nima aloqasi bor, deb o'ylayotgandirsiz? To'g'ri aytasiz, balki aloqasi yo'qdir. Lekin ota-onasining qistovi bilan kasb tanlayotgan talabalar ertaga ikkinchi voqeda aks etgani kabi o'z kasbiga befarq, mas'uliyatsiz bir kadr bo'lib yetishib chiqmasligiga kim kafolat beradi? Ikkala voqeani birlashtirib, xayolan, hatto, o'sha ikki yigit ham rus tili darsida bolalarga kartoshka yetishtirish va olma-gilos eksporti haqida berilib so'zlab berayotganini tasavvur qildim. Endi o'yab ko'ring, maktablarimizda o'zi xohlamay kasb egallagan o'qituvchilar necha foizni tashkil qilarkan? O'zi tushunib tushunmay poliklinikada bemor qabul qilayotgan shifokorlar-chi? Bankda o'tirib, mijozga qo'pol muomala qilayotgan xushro'y yigit, balki zo'r ekskavatorchi bo'lishni orzu qilgandir? Alamidan ichib kelib, har kuni ayolini do'pposlaydigan dehqon yigit, balki bolaligida zo'r matematik bo'lish istagida yongandir. Agar davom etsak, bu kabi so'roqlar tugamasligini siz ham sezdingiz chog'i? Balki ko'z oldingizda qaysidir tanishingiz gavdalangandir ham, balki o'zingizning amalga oshmay qolgan qiziqishlaringiz yana bir bosh ko'tarib qo'ygandir...

Xullas, nima bo'lganda ham, gap farzandlarimizning kasb tanlashi haqidaligini angladingiz, deb o'ylayman. Bugun bitiruvchi yoshlarimiz yo biror kasb, yo biror hunar tanlashdek mas'uliyatli vazifa qarshisida turgan ekan, ular o'zi qiziqqan, yuqorida ta'riflaganimdek, ko'zi yonib gaplashadigan sohasi tomon qadam tashlashiga imkon beraylik. Endi kech, qaysi yo'nalishda ketishini allaqachon belgilab, shunga ko'ra harakat qilganmiz, demang. Ko'cha boshidan qaytish oson, ichkariga kirilgani sari qaytish uchun bosiladigan yo'l ham uzoqlashib boraveradi.

Gavhar NASRULLOH



Tillyaxodjayeva Zuxraxon Djaxangirovnaning 11.00.03 — Quruqlik gidrologiyasi. Suv resurslari. Gidrokimyoy ixtisosligi bo'yicha "Toshkent viloyati yer usti suvlarini gidrokimyoviy baholashdan foydalanib nozogeografik holatini tahlil qilish" mavzusidagi (geografiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27/30.12.2019. Gr.47.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 23-iyul kuni soat 14:00 dagi masofaviy (onlayn) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100052, Toshkent shahri, Bodomzor yo'li 1-tor ko'chasi, 72-uy. Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot institutining majlislar zali. Tel/faks: (71) 235-85-12, 237-13-19; e-mail: nigmi@albatros.uz

Saidova Nilufar Axrorovnaning 14.00.21 — Stomatologiya (tibbiyot fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Balog'at yoshidagi bolalarda gipertrofik gingivitni kompleks davolashni takomillashtirish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi DSc. Ph.D.04/30.12.2019. Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 26-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Alisher Navoiy shoh ko'chasi, 1-uy. Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru.

Nishanbayev Sabir Zaripbayevichning 02.00.10 — Biorganik kimyo ixtisosligi bo'yicha "O'zbekiston florasidagi Polygonum, Alhagi, Quercus va Platanus turkum o'simliklarining fenol va terpenoid birikmalari" mavzusidagi (kimyo fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasi ishi himoyasi O'simlik moddalar kimyosi instituti huzuridagi DSc.02/30.01.2020.K/T.104.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 24-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-uy, O'simlik moddalar kimyosi instituti binosi. Tel/faks: (71) 262-59-13, 262-73-48, (78) 120-64-75; e-mail: ixrv@mail.ru

Kamolova Nargiza Ibragimovnaning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo) ixtisosligi bo'yicha "Oliy ta'lim muassasalarida Biokimyoy fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'simlik moddalar kimyosi instituti huzuridagi DSc.02/30.01.2020.K/T.104.01 raqamli ilmiy kengash asosida tuzilgan Bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 24-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-uy, O'simlik moddalar kimyosi instituti binosi. Tel/faks: (71) 262-59-13, 262-73-48, (78) 120-64-75; e-mail: ixrv@mail.ru

Sergeli tibbiyot kolleji tomonidan Davlat attestatsiya komissiyasining 2010-yil 30-iyundagi qaroriga binoan Holmatova Shoxista Obidjon qiziga berilgan K № 1860221 raqamli DIPLOM va uning ilovasi yo'qolgani sababli **BEKOR QILINADI.**

Toshkent shahar, Hamza tumani fuqarolik holati aktlarini qayd etish bo'limi tomonidan 1991-yil 24-mayda, 1991-yil 22-mayda tug'ilgan Holmatova Shoxista Obidjon qiziga berilgan X-IOC 436722 raqamli tug'ilganlik haqida GUVOHNOMA yo'qolgani sababli **BEKOR QILINADI.**

Toshkent Islom universiteti tomonidan Davlat attestatsiya komissiyasining 2005-yil 4-iyuldagi qaroriga binoan Aliyeva Maxfuza Nigmatovnaga berilgan B № 232725 raqamli BAKALAVR DIPLOMI va uning ilovasi yo'qolgani sababli **BEKOR QILINADI.**

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti jamoasi institut katta ilmiy xodim, pedagogika fanlari doktori, akademik Risbov Jo'rayevga singlisi **Jonqiz XODJAQULOV**ning vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor qiladi.



Andijon davlat tibbiyot instituti

2021/2022-o'quv yili uchun bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklari hamda sirtqi ta'lim bo'yicha o'qishga taklif etadi!

(kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha)

№	Shifr	Vazirlik, idoralar, oliy ta'lim muassasalari va ta'lim yo'nalishlari nomi	Jami	Davlat grantlari asosida			To'lov-kontrakt asosida		
				Jami	shu jumladan		Jami	shu jumladan	
					o'zbek	rus		o'zbek	rus
*	45	Andijon tibbiyot instituti	775	360	264	96	415	300	115
1	5510100	Davolash ishi	325	150	120	30	175	135	40
2	5510200	Pediatrya ishi	225	110	80	30	115	85	30
3	5510300	Tibbiy profilaktika ishi	50	25	15	10	25	15	10
4	5510400	Stomatologiya (yo'nalishlar bo'yicha)	50	25	15	10	25	15	10
5	5510500	Farmatsiya (turlari bo'yicha)	50	25	15	10	25	15	10
6	5510600	Sanoat farmatsiyasi (turlari bo'yicha)	50	15	9	6	35	25	10
7	5511100	Xalq tabobati	25	10	10		15	10	5

(kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha)

Shifr	Vazirliklar, idoralar, oliy ta'lim muassasalari va mutaxassisliklar nomi	Jami	Davlat granti asosida			To'lov-kontrakt asosida		
			Jami	shu jumladan		Jami	shu jumladan	
				o'zbek	rus		o'zbek	rus
44	Andijon tibbiyot instituti	255	57	41	16	198	143	55
5A510101	Akusherlik va ginekologiya	20				20	16	4
5A510102	Endokrinologiya	10				10	7	3
5A510103	Terapiya (yo'nalishlar bo'yicha)	28	12	9	3	16	12	4
5A510104	Otorinolaringologiya	10				10	7	3
5A510105	Kardiologiya	15				15	9	6
5A510106	Oftalmologiya	10				10	7	3
5A510107	Yuqumli kasalliklar (yo'nalishlar bo'yicha)	4	4	3	1			
5A510108	Dermatovenerologiya	4				4	3	1
5A510109	Nevrologiya	22	4	3	1	18	12	6
5A510110	Umumiy onkologiya	5				5	4	1
5A510111	Psixiatriya	4	4	3	1			
5A510112	Xirurgiya (yo'nalishlar bo'yicha)	15				15	11	4
5A510114	Neyroxirurgiya	4	1	1		3	2	1
5A510115	Sog'liqni saqlashni boshqarish va jamoat sog'lig'ini saqlash (yo'nalishlar bo'yicha)	4	2	1	1	2	1	1
5A510117	Urologiya	10				10	7	3
5A510118	Morfologiya (yo'nalishlar bo'yicha)	6	4	3	1	2	2	
5A510119	Narkologiya	4	4	3	1			
5A510120	Anesteziologiya va reanimatologiya	4	2	1	1	2	2	
5A510121	Travmatologiya va ortopediya	8				8	6	2
5A510123	Sud-tibbiyot ekspertizasi	4	4	3	1			
5A510132	Tibbiy radiologiya	10	4	3	1	6	5	1
5A510201	Pediatrya (yo'nalishlar bo'yicha)	20	3	2	1	17	11	6
5A510202	Bolalar xirurgiyasi	6	1	1		5	4	1
5A510203	Bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi	6	2	1	1	4	3	1
5A510206	Neonatologiya	4	2	1	1	2	2	
5A510301	Gigiyena (yo'nalishlar bo'yicha)	18	4	3	1	14	10	4

Совместные образовательные программы Андижанский государственный медицинский институт

1. Дагестанский государственный медицинский университет – направление «Стоматология» 15 чел.
2. Уральский государственный медицинский университет – «Педиатрия» 20 чел
3. Санкт-Петербургский государственный педиатрический медицинский университет- «Лечебное дело» 20 чел.
4. Университет Росток (Германия) - магистратура «Медицинские биотехнологии» 4 чел.

2021/2022 o'quv yili qabuli uchun Andijon davlat tibbiyot institutida tashkil etilgan
 "Call-center" raqamlari: 998-74-223-94-51, 998-74-223-94-53, 998-74-237-11-41 e-mail:
 agmi-361@umail.uz

Murojaat uchun manzil: Andijon viloyati, Andijon shahri, Y.Atabekov ko'chasi, 1-uy.



Elda aziz

Shuhratga yo'g'rilgan Shuhrat domla

Shuhrat Sirojiddinov Samarqandning Kattaqo'rg'on tumanida tug'ilgan. Ziyoli oilada tarbiya topib, bolaligidan ilmga oshno bo'ldi. Ona tili va adabiyot bilan birgalikda sharq tillarini hamda ingliz tilini mukammal o'rgandi. Natijada puxta maqolalar yozadigan, ilmiy mushohada yuritadigan olim bo'ldi. 1991-yilda nomzodlik, 1998-yilda esa doktorlik dissertatsiyalarini himoya qildi.



Toshkent va Samarqand oliy ta'limi muassasalaridagi faoliyati, bir qator nufuzli dargohlarni boshqarishdagi mahorati tahsinga sazovor. Bundan tashqari, ustoz O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida ko'p yillar prorektor, Samarqand davlat chet tillar instituti, o'zi tahsil olgan O'zbekiston Milliy universitetida rektor vazifalarida faoliyat yuritgan. Odatda, rahbar kishilarda ilm bilan shug'ullanishga vaqt bo'lmaydi. Ammo olim biror daqiqa ilm-ma'rifatdan chekinmadi. Bir qator jiddiy asarlar yaratdi, ularning aksariyati Alisher Navoiy ijodiga taalluqli.

"Alisher Navoiy: manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili" monografiyasi 2011-yilda "Akademnashr" tomonidan chop etildi. Mazkur tadqiqot mutafakkirlarimiz hayoti va ijodiy faoliyatini tarixiy va mafkuraviy soxtalashtirishdan tozalab, ularning jahon madaniyatidagi maqomini real ko'rsatgan yirik fundamental asarlardan. Monografiyaning bosh maqsadi Alisher Navoiy fenomenini ochish, shoirning shaxsiyatiga turli yondashuvlar mohiyatini ulug' mutafakkir yashagan davrdan hozirga qadar Markaziy Osiyo, Eron, Turkiya va Hindistonda yaratilgan forsiy va turkiy qo'lyozma asarlar, o'zbek, rus va ingliz tillarida olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar asosida o'zaro qiyoslash va tanqidiy qayta o'rganishdan iborat edi. Olim mazkur ishida oldiga qo'yan maqsadiga erishdi. 2013-yilda ushbu tadqiqoti uchun O'zbekiston Respublikasining Adabiyot sohasidagi 1-darajali Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

Domla doimo ilmiy ishlarini o'quv-pedagogik jarayon bilan birlashtirib olib bordi. Ayniqsa, mustaqillik yillariga kelib ayrim sohalarida darslik va o'quv adabiyotlarining yetishmasligi yaqqol sezildi.

Mana shunday kamchiliklardan biri badiiy tarjima masalalari bilan bog'liq edi. O'sha paytlarda ham olim yeng shimaib ishga kirishdi. Talay darslik va o'quv qo'llanmalar yaratdi. Shuhrat akaning o'zbek, rus, ingliz, fors va arab tillarini puxta egallagan juda qo'l keldi. 2011-yilda uning "Badiiy tarjima asoslari" o'quv qo'llanmasi nashr etildi. Ushbu qo'llanma badiiy tarjima bo'yicha respublikada mustaqillik yillarida amalga oshirilgan birinchi asarlardan biridir.

Bir necha nufuzli jurnallarning tahririyat a'zosi, xorijiy universitetlarning faxriy doktori Shuhrat domla o'zbek tili va adabiyoti bo'yicha yetuk mutaxassislar tayyorlashda munosib hissa qo'shib kelmoqda. Ustozning muharrirlik borasidagi ishlari ham tahsinga sazovor. 2012—2014-yillari "Xorijiy filologiya" jurnali bosh muharriri, 2014—2016-yillarda "O'ZMU xabarnomasi" bosh muharriri, 2018-yildan hozirga qadar "Oltin bitiklar" va Xalqaro "Uzbekistan: Language and culture" jurnallari bosh muharriri vazifalarini ham bajarib kelmoqda.

2016-yildan hozirga qadar Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori Shuhrat Sirojiddinov rahbarligida universitetimiz qisqa muddatda O'zbekiston universitetlari milliy reytingida 9-o'ringa ko'tarildi. Binobarin, "Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik", "Tarjima nazariyasi va amaliyoti", "O'zga tili guruhlarida o'zbek tili", "Noshirlik ishi", "Turkologiya", "Gid hamrohligi va tarjimonlik", "Komputer lingvistikasi", "Sinxron tarjima", "Komputer grafikasi va dizayn" kabi ta'lim yo'nalishlari ustozning tashabbusi bilan ochildi.

Xalqaro aloqalar xususan, xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan

50 dan ziyod shartnomalar qilinganligi hamda hozirda ularning 63 tasida o'zbek tili kurslari tashkil etilganligi rahbarimizning jonkuvarligi natijasidir.

Sh.Sirojiddinov mamlakatimizda davlat tili rivoji uchun keng ko'lmda targ'ibot ishlarini olib borayotgan olimlardan. U respublika atamalar komissiyasi raisi o'rinbosari sifatida joy nomlari va tashqi yozuvlar bo'yicha qonunchilik hujjatlarini tartibga keltirish ustida amaliy ishlarga boshchilik qilmoqda. Masalan, lotin alifbosiga kiritiladigan o'zgarishlar borasida ham ustoz qat'iy fikrga ega.

Ustozning tashabbusi bilan 2016-yildan beri internet tarmoqlarida o'zbek tilining rivoji va targ'iboti bilan bog'liq bir necha kanallar tashkil etildi. Shuningdek, xalqaro miqyosda o'zbek tilini targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Uning bevosita rahbarligida o'zbek tilini xorijliklarga masofaviy o'qitish xalqaro sertifikatlashtirish dasturi ishlab chiqildi.

Darhaqiqat, umri davomida barakali mehnat qilib, ilm-u ma'rifat taratayotgan, o'zbek fani taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotgan fidoyi inson bugun o'zining qutlug' oltinshi yoshini qarshilamoqda. Biz fursatdan foydalanib, Shuhrat Sirojiddinovga uzoq umr, mustahkam sog'liq, ilmiy-ijodiy ishlarida muvaffaqiyatlar tilaymiz. Ilm yo'lida chekkan zahmatlarigiz rohatini ko'ring, farzandlarigiz kamoli, shogirdlarigiz chitirozi sizga bir umr hamroh bo'lsin!

Ravshan JOMONOV,
O'zbekiston davlat
xoreografiya akademiyasi
professori,
filologiya fanlari nomzodi,
Nurmurod CHINIQLOV,
TOSHDOT'AU dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Yaxshilar yodi

Dunyoda shunday kasb egalari bo'ladiki, ularni hamisha e'zozlaymiz, yaxshi xotiralar ila yodga olamiz. Eng ulug' imorat bu maktab deyidigan bo'lsak, eng ulug', eng tabarruk kasb egasi esa, shubhasiz, muallim, ustozdir. Navoiy bobomiz:

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qutmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila



Qalbi shodimon ustoz

deya ustoz-muallimlarni bejizga ulug'lamagan. Chindan ham muallim zotini, uning ezgulikka yo'g'rilgan siymosini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. Ustoz hamisha mehr va sadoqatni, yaxshilik va oliyanoblik fazilatlarini, odamiylik, insoniylik saboqlarini o'z shogirdlariga singdirib yashashdan katta bir baxtiorlikni his etadi. Shodmon aka Nuraliyev (oxiratlari obod bo'lsin) ana shunday ulkan qalb sohiblaridan biri edi.

Bundan salkam yarim asr muqaddam pedagogika oliygohini muvaffaqiyatli tamomlab qadrdon qishlog'iga qaytgan Shodmon aka Bekobod tumanidagi 35-umumta'lim maktabida ishlashni ixtiyoriy etdi. Shu maktabda qariyb yarim asrga yaqin fidokorona mehnat qildi, ustozlar va shogirdlarning mehrini qozondi. Bu haqda uning to'ng'ich farzandi, tibbiyot hamshirasi Nasiba Nuraliyeva shunday deydi:

— Hayotda nimaiki narsaga erishgan bo'lsam, ularning barchasi dadajonim tufaylidir. Padari buzruvorimning oq ko'ngil va mehrbonligi, hamkasblari va do'stlariga sadoqati, ayniqsa biz, farzandlariga ko'rsatgan g'amxo'rliqi, otalarcha mehrbonligi beqiyos edi. Otamdagi odamoxunlik, halollik va rostgo'ylikni, barchaga birdek mehribon inson ekanligini so'z bilan ta'riflash qiyin.

Darhaqiqat, Shodmon aka o'zining qadrdon maktabida sharaflari ishini sidqidildan bajardi. Tajribali ustoz mazkur maktabga ko'p yillar rahbarlik ham qildi. O'quv dargohining har taraflama rivojlanishiga, o'quv-tarbiyaviy ishlarning tubdan yaxshilanishiga o'zining munosib ulushini qo'shdi. U kishida shunday bir fazilat bor ediki, kattami, kichikmi, kim bo'lishdan qat'iy nazar hech kimdan yordamini ayamas, qo'lidan kelguncha insonlarga ko'mak berishga oshiqar, ammo nohaqlikni, adolatsizlikni juda yomon ko'rardi. Hamisha hamkasblariga ham, shogirdlariga ham o'zidagi yaxshi fazilatlarini singdirishga harakat qilib yashadi.

— Ustozimning kamtar bo'li, ko'p o'qi, oz so'zlab, ko'proq tingla, degan purma'no hikmatlarini hamon yodimda saqlayman, — deydi taniqli jurnalist, "Mahalla" gazetasining bosh muharriri Baxtiyor Abdusattorov. — Keyin bilsam, ustoz hamisha bizga kuyinchaklik bilan yondashib bor mehri baxshida etgan ekan. Bunday insonlar hayotda juda kam bo'ladi.

Ustoz bilan ko'p yillar birgalikda mehnat qilgan hamkasbi Murodilla Rahmatov shunday deydi:

— Shodmon aka o'z kasbiga mehr qo'yan fidoyi inson edi. O'ziga ham, jamoasiga ham o'ta talabchanlik bilan yondashar, zarur hollarda qo'lidan kelguncha odamlarga yaxshilik qilishni kanda qilmasdi. Maktabni, bilim dargohini hamisha qadrlab yashadi, bor hayotini, butun tajribasini ta'lim-tarbiyaga baxshida etdi.

Darvoqe, Shodmon aka nafaqaga chiqqanidan keyin ham bir joyda qo'l qovushtirib o'tirmadi. Jamoatchilikning taklifi, yor-u birodarlari-ning iltimosi bilan mahalla raisligida ham faoliyat ko'rsatdi. Ko'p yillik pedagogik tajribasi bu sohada ham qo'l keldi. Mahallani obodonlashtirish, xayrli, ezgu amallarni ro'yogga chiqarishga bosh-qosh bo'ldi. Bu inson el-yurt uchun xizmat qilishni hamisha savobli yumush deb bildi. Qayerda ishlamasin, uning yagona taomili adolat ila ish yuritish bo'ldi.

Hayotining so'nggi yillarida 56-umumta'lim maktabiga rahbarlik qilib kelayotgan Shodmon Nuraliyev yana o'zining ko'p yillik tajribasini, bilim va mahoratini maktab ishiga bag'ishladi. Chunki bu inson hayotini, taqdirini maktabdan ayro tutolmas edi. Ayniqsa, hozirgi sharoitda muhtaram Prezidentimiz rahnamoligida maktab ta'limiga katta bir g'amxo'rlik qilinayotgan paytda, "Yangi O'zbekiston ostonasi — maktabdan boshlanadi" degan ulug' shior bilan yashayotganimizda Shodmon akaga o'xshash fidoyi ustozlar ishlab charchamas edi. Ming afsuski, ana shunday ajoyib insonni, maktab ta'limining gullab yashnashiga katta hissa qo'shib kelayotgan ustoz-murabbiyni beshafqat o'lim oramizdan olib ketdi. Shodmon akadan suyuqlik shogirdlariga, farzand-u nabiralarga meros sifatida solih amallar, betakror o'git-nasihatlar, savobli ishlari qoldi. Bunday xayrli amallarni uning shogirdlari, mehribon izdoshlari davom ettirishiga shak-shubha yo'q.

Ashurali BOYMUROD

Xazinabonlar

Xalqimiz ongiga singdirib va bevosita hayotiga olib kirilayotgan tashabbuslardan biri — kitobga oshnollik. Yoshlarimizdan tortib, keksalargacha intellektni sinovchi tadbirlarda faol ishtirok etayotgani ham buning isboti.

Xabaringiz bor, o'tgan yilning oxirlarida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Axborot-kutubxona a'lochisi" ko'krak nishonini ta'sis etish to'g'risida"gi qarorni qabul qilgan edi. Buni eshitgan soha vakillari o'zlaridagi iqtidor va jonkuyarligini yana bir bora namoyon etishga kirishib ketdi.

Sovrindorlar qatoridan o'rin olgan Ichki ishlar vazirligi Qorovul qo'shinlariga qarashli Navoiy sha-

har 7532 harbiy qism kutubxonasi rahbari lavozimida ishlab kelayotgan Manzura Jumayeva ham mehnatining hosilini ko'rganidan mamnun. Ish faoliyatini boshlagandan buyon turli joylarda ishlashga qaramay, doim kutubxonachi bo'lgani ham bejiz emas.

— Bizga kutubxonachi deb murojaat qilishadi. Bunga ko'nikib ketganmiz. Ammo, doim bir narsani ko'nglimdan o'tkazar edim. Biz aslida kutubxonachi niqobi ostidagi xazinabonlarmiz, — deydi u yuqoridagi fikrlarimizga ilova tarzda.

Darhaqiqat, odamning yurish-turishiga qarab xulosa chiqarib bo'lmaydi. Balki biz bilan bir ko'chada, bir mahallada yashayotgan odam hayotning mohiyatini anglagan bo'lishi mumkin va avliyolar e'tirof etgandek, odam qancha ko'p bilsa, shuncha jimlikka beriladi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu ko'krak nishoni faqat zar sotib olgan odam baxtli emas, balki zargar ham zavqalanadi va ushbu matohda zargarning ham haqqi borligini ko'rsatib berdi.

Obidjon RO'ZIBOYEV

Yo'ldashov Murodjon Ravshanovichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Yosh futbolchi qizlarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyatini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 16-iyul kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.
O'zDJTSU binosi. Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Panjiyev Arziqul Xolliyevichning 02.00.13 — Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi (texnika fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Mahalliy xomashyo asosida kalsiy sianamid olish texnologiyasini ishlab chiqish" mavzusida (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi PhD.03.30.12.2019.T.78.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 19-iyul kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy.
Tel/faks: (76) 221-74-55, 221-71-17; e-mail: termizdu@mail.uz

Faxrutdinov Muxammadaziz Zaynuddinovichning 06.01.05 — Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha "Yuqori hosilli, stress omillarga bardoshli sitrus ekinlarini yangi istiqbolli navlarini yaratish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/27.02.2020.Qx.42.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 27-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti.
Tel/faks: (78) 150-61-37; e-mail: piim@agro.uz, paxtauz@mail.ru

Xoshimova Dilnoza Rixsibayevnaning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili) ixtisosligi bo'yicha "Talabalarda ingliz tilidagi hissiy-ekspressiv nutqni mnemonik baza asosida tekzor o'stirish metodikasi" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti huzuridagi PhD 03/30.12.2019.Ped.82.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 23-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy.
Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@mail.uz

Yusupova Muhabbat Anatolevnaning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili) ixtisosligi bo'yicha "Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyasidan foydalanishga o'rgatish itimi" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Ped.82.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 23-iyul kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy.
Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@mail.uz

Soatov Nizomiddin Turdiyevichning 04.00.01 — Umumiy va mintaqaviy geologiya ixtisosligi bo'yicha "Dukant va Kattasoy oraliq'dagi oksidlanish zonasining geologik tuzilishi va mineralogik-geokimyoviy xususiyatlari (Chotqol tog'ining janubi-g'arbiy tarmog'i)" mavzusidagi (geologiya-mineralogiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.24/30.10.2020.GM.125.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 28-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Olimlar ko'chasi, 64-uy.
Tel/faks: (71) 241-88-67-38, 262-63-81; e-xat: ingeo@exat.uz, URL: www.ingo.uz

Mirzayeva Dilobar Abdulkaxarovnaning 03.00.12 — Biotexnologiya ixtisosligi bo'yicha "No'an'anaviy manbalar asosida ozuqa yemi olish texnologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi (biologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.B.72.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 23-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.
Tel/faks: (65) 221-29-14, 221-27-57; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz

Baymuradov Ravshan Radjabovichning 14.00.02 — Morfologiya ixtisosligi bo'yicha "Urug' donlarning morfologik xususiyatlari va nur kasalligida biostimulyator ta'siridagi o'zgarishlari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.04/30.12.2019.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 22-iyul kuni soat 12:30 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Alisher Navoiy shoh ko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Raximov Oybek Umarovichning 14.00.27 — Xirurgiya ixtisosligi bo'yicha "Xolestistik-tomyadan keyingi o't gopi o'rindan qon ketishini gemostatik implantat — kollagenli gomubkadan foydalanib profilaktika qilish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc/PhD.04/30.12.2019.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 22-iyul kuni soat 14:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Alisher Navoiy shoh ko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Ibragimov Bekzod Odiljonovichning 06.01.08 — O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha "G'o'zaning nav xususiyatlariga bog'liq holda chigit ekish muddati, chilpish va defoliatsiya o'tkazish tadbirlarini takomillashtirish" mavzusidagi (Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi DSc.05/30.12.2019.Qx.42.01 raqamli ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashning 2021-yil 16-iyul kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, "Botanika" MFY, O'zPITI ko'chasi, PSUYAITI. Tel/faks: (71) 150-62-84, 156-61-34, 150-61-37; e-mail: piim@agro.uz

Rasulov Zokir Pardayevichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi, 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosliklari bo'yicha "Trenerlarning kasbiy-psixologik tayyorgarligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 16-iyul kuni soat 8:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy. O'zDJTSU binosi. Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Matnazarov Xayrulla Yuldashovichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Yosh suzuvchilarni dastlabki ixtisoslash bosqichida saralash uslubiyatini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 17-iyul kuni soat 10:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy. O'zDJTSU binosi. Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Denisova Umida Jumamuratovnaning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Malakali basketbolchi qizlarda tiklanish jarayonlarini lazer nurlari ta'sirida jadallashtirish samaradorligi" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 17-iyul kuni soat 8:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy. O'zDJTSU binosi. Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Shakirova Fotima Abdulazizovnaning 14.00.21 — Stomatologiya (tibbiyot fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Gerpetik stomatit va lab uchug'ini klinik kechishi, davolash" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat stomatologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.59.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 23-iyul kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 103-uy.
Toshkent davlat stomatologiya institutining rektorat majlislar zali.
Tel/faks: (71) 230-20-65, 230-47-99; e-mail: tdsi2016@mail.ru

Axrorxujayev Nodirxon Shaxobiddin o'g'lining 14.00.21 — Stomatologiya ixtisosligi bo'yicha "O'zbekiston Respublikasining janubiy hududlarida yashovchi maktab yoshiga bo'lgan bolalarning stomatologik statusi va profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat stomatologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.59.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 23-iyul kuni soat 13:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 103-uy. Toshkent davlat stomatologiya institutining rektorat majlislar zali.
Tel/faks: (71) 230-20-65, 230-47-99; e-mail: tdsi2016@mail.ru

Kamalova Mexriniso Qilichevnaning 14.00.21 — Stomatologiya ixtisosligi bo'yicha "Maktabgacha yoshdagi bolalarda kompleks tibbiy-ijtimoiy va klinik-iqtisodiy tahlil asosida tishlar kayiriyasining oldini olish va davolashni optimallashtirish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc/PhD.04/30.12.2019.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 29-iyul kuni soat 12:30 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, A.Navoiy shoh ko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, (65)-223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Kamolova Feruza Rahmatilloevnaning 14.00.21 — Stomatologiya ixtisosligi bo'yicha "Qandli diabet bilan kasallangan bolalarda asosiy stomatologik kasalliklar profilaktikasi dasturini ishlab chiqish va uni baholash" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc/PhD.04/30.12.2019.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 26-iyul kuni soat 12:30 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Alisher Navoiy shoh ko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Maksudova Hilola Ferdinantovnaning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili) ixtisosligi bo'yicha "Farmatsevtika yo'nalishida ingliz tilini o'qitish jarayonida talabalarning kasbiy layoqatlarini rivojlantirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 24-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-"a" uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru

Omanov Po'latjon Habibovichning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili) ixtisosligi bo'yicha "Ingliz tilini o'qitishda talabalar ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini autentik videomateriallar vositasida rivojlantirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 24-iyul kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-"a" uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru

Xasanov Baxrom Baxodirovichning 05.09.05 — Qurilish materiallari va buyumlari ixtisosligi bo'yicha "To'siq konstruksiyalar uchun ko'mir chiqindilari asosidagi g'ovak to'ldirgichli yengil betonlarning xossalari va texnologik xususiyatlari" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.26/30.12.2019.T.II.1 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 19-iyul kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7-"V" uy.
Tel/faks: (71) 241-10-84, 241-80-00; e-mail: devon@taqi.uz, taqi atm@edu.uz



Kasaba uyushmasida yagona tizim

Toshkent Moliya instituti majlislar zalida O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Toshkent shahar bo'linmasining 1-konferensiyasi bo'lib o'tdi. Unda 35 nafar delegat, 50 nafar mehmonlar ishtirok etdi.

Shuningdek, anjumanda O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi Ravshan Bedilov, TDIU rektori Konratboy Sharipov va boshqa mutaxassislar ishtirok etishdi.

Yig'ilishda O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi ustavi-ning 43-bandiga muvofiq, uyushmaning Toshkent shahar bo'linmasi tashkil etildi. Konferensiyada bir qator delegatlar, taklif etilgan mehmonlar so'zga chiqib,

fikr-mulohazalarini bildirdi. Abduxalil Rahmonov Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Toshkent shahar bo'linmasi kengashi raisi etib saylandi.

Shuningdek anjumanda, uyushmaning Toshkent shahar bo'linmasining tuzilishi natijasida Toshkent shahridagi tarmoq kasaba uyushmasi tashkilotlari yagona tizimning yaratilishi, kasaba uyushmasining tashkiliy, moliyaviy, huquq va sog'lomlashtirish sohalaridagi faoliyati tartibli amalga oshirish haqida gapirildi.

Toshkent shahar bo'linmasining tuzilishi natijada shaharning tarmoq tizimida yagona boshqaruv, faoliyatni haqqoniy tahlillar asosida yo'lga qo'yish, barcha sohalarida kasaba uyushmasining ishtirokini ta'minlash, quyi tashkilotlarga sezilarli amaliy yordamlar ko'rsatish, Toshkent shahridagi davlat boshqaruv organlari — paritet tashkilotlar bilan ijtimoiy hamkorlikning foydali amalga oshirilishi kabi bir qator imkoniyatlar yaratilishi ta'kidlandi.

Ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, mehnat muhofazasi, madaniy-ma'rifiy va sport-sog'lomlashtirish sohalarida o'zaro hamkorlik yetarli darajada yo'lga qo'yiladi.

Bugungi kunda "Yangi O'zbekiston — Yangi kasaba uyushmalari" shjori ostida bir qator islohotlar va o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Tarmoq kasaba uyushmasida ham bir qator o'zgarishlarni amalga oshirishga ehtiyoj sezilyapti. Shuning uchun kasaba uyushmasining Toshkent shahar bo'linmasini tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi, degan fikrga kelindi.

Dilafroz ABDURAJABOVA,
"Ma'rifat" muxbiri

Bilasizmi?

Bemormisiz, kasbingiz nima?

Kommunal xizmat haqini to'lash uchun uyim yonidagi minibankka kimgandim. Bu yerdagi xodimning chaqqon ishlashidan mamnun bo'lganicha o'ziga bildirmay, kuzatib turarkanman, bir qiligi yoqmad. Hozirgina pul sanagan qo'li bilan stoli ustidagi shokoladni ochib, undan bir bo'lak sindirdi-da, og'ziga soldi.

Ishi nuqul pul sanash, turli-tuman plastik kartalardan to'lovlarni yechib olish-u, nahotki, ularning barida o'nlab yuqumli xastaliklar sababchisi bo'lmish millionlab mikroblar bor bo'lishi mumkinligini bilmasa?! Axir, hozirgi kunda qo'lni sovunlab yuvishga imkon topilmagan paytda ham gigiyena qoidalariga rioya qilinishi uchun maxsus gellar ishlab chiqarilayotgan bo'lsa. Arzimagana narxga bittagina sotib olib, stoli ustiga qo'ysa-ku, olam guliston...

Shularni o'ylarkanman, unga ham oson tutib bo'lmaydi, deb qo'ydim, o'zimcha. To'g'rida, qo'lni tozalab, taom yegani bilan derazasi zich yopiq, pul hidi anqigan xonada nafas olib o'tiribdi, baribir. Nima qilsin, ishi, kasbi, vazifasi bu! Aslida kimga oson? Mehnatning yengili bormi, ishlamasdan tishlab bo'ladimi? Hamma ham qachonlardir qiziqib tanlagan kasbi bo'yicha saboq olib, bugun ishlayapti, mehnat qilyapti, jamiyat ravnaqiga ulush qo'shish, oilasi farovonligini ta'minlashga intil-

yapti. Faqat shunisi ham borki, pul topishim kerak, daromad orttirishim lozim, ishim qolib ketmasligi zarur deya o'zimizni o'tga-cho'qqa urishdan avval har nening ham me'yori yaxshi ekanligini unutmasligimiz dar-

kor. Yaqinda internet saytlaridan birida bahor va yoz fasli ham-madan ham ko'ra ko'proq yopiq inshootda ishlovchi ofis xodimlarining xastaliklari avj oladi, degan ma'lumotni o'qib qoldim. Bunga sabab kun bo'yi bir yerda o'tirib ishlaydigan kishilarda kamharakatlik, toza havo yetishmasligi va surunkali charchoq tufayli immunitet pasayib ketishi ekan. Komputerga uzoq termulib o'tirish, hujjatlarni o'qish va yozish, xonada havo namligining kamligi, vitaminlar yetishmovchiligi ko'z quruqlashishi

sindromini yuzaga keltirar ekan. Ya'ni, ko'z pardasi quruqlashib, yetarli miqdorda suv to'plashga ulgurmay qolsa, ko'zga nimadir sanchilayotgandek bo'ladi, qizaradi, qichishadi va bora-bora ko'rish qobiliyati pasayadi. Buning oldini olish uchun oftalmolog mutaxassislar shuni tavsiya etishadiki, komputer bilan ishlovchilar tez-tez dam olib, ko'zni yumib-ochish mashqini bajarib turishlari, uni ishqalamasliklari lozim. Hozir dorixonalarda ko'z pardasini namlantiruvchi suyuqliklar sotilyapti. Ular ko'z ichidagi tabiiy suyuqlikka qo'shib, muguz pardani parvarishlaydi. Bundan tashqari, ko'z xiralashishining oldini olish uchun uni ochiq holatida soat o'qi bo'ylab 10-15 soniya harakatlantirish, so'ng xuddi shu harakatni teskarisiga bajar-

ish, har soatda 10 daqiqa dam olish yoki shunchaki ko'zni yumib o'tirish kerak ekan.

Mutaxassislar ta'kidlashicha, suyak-mushak xastaliklari 40 foiz ofis xodimlarida uchraydi. Eng yomoni, belning quyi qismida paydo bo'lgan og'riq, ya'ni qiyshayish tufayli qirq besh yoshdan keyin nogiron bo'lib qolish ham mumkin. Qolaversa, inson ruhiyatiga salbiy ta'sir etuvchi kasblar sirasiga o'qituvchi, huquqshunos, shifokor, jurnalist, ruhshunos, savdogar, hisobchi kabilarni kiritish mumkin. Ular haddan ziyod ko'p gapiradigan, asabiylar va sababsiz vahimaga beriladigan bo'lib qoladilar. Shu bois har olti oyda ishdan o'n kun ta'til olib, tabiat qo'yniga chiqish, suzish bilan shug'ullanish, ko'proq hazzil-mutoyibaga moyil filmlar tomosha qilish lozim.

Dildora BOBOYEVA,
Kitob tumanidagi
20-maktab o'qituvchisi

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-4756. Tiraj 7470.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotihiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.

ISSN 2010-6411



"Ma'rifat" dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqdir
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Humoyun Quvondiqov.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxonalar manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.